

Ilmiy-amaliy jurnal/2026 May №42

MUTAFAKKIR





Bosh Muharrir:
Shohinur Mirzayev

Tahrir hay'ati

Baxtinur Xudanov
Qodir Raximov
Oybek Mamanazarov
MuXtor Xudoyqulov
Murod Abulkasimov
Baxrom Urunov
Xasanxodja Abidov
Gulrux Sadullayeva

MA'LUMOTNOMA

Turkum nashrlarning chiqish ma'lumotlarini GOST 7.4-95 «Nashrlar. Chiqish ma'lumotlari» hamda GOST 7.56-2002 « Xalqaro standart turkum raqami» davlatlararo standartlar talablari asosida bo'lishini to'liq ta'minlash maqsadida, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasiga asosan «Mutafakkir» turkum nashrining ISSN raqami: 2181-3310



МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИГИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: ОМИЛЛАР ВА БОСҚИЧЛАР

Қодиров Нажмиддин Нейматович

Халқаро Нордик университети Ижтимоий фанлар ва журналистика
кафедраси мудири, тарих фанлари номзоди, доцент

e-mail: n.qodirov@nordicuniversity.org

Аннотация. Мақолада мустақиллик йилларида (1991–2024) Ўзбекистонда ёшлар ижтимоий фаоллигининг ривожланишига таъсир этган омиллар таҳлил қилинади. Тадқиқотда мазкур омиллар институционал-ҳуқуқий, иқтисодий, таълимга оид ва маданий-маънавий гуруҳларга тизимлаштирилган ҳолда ўрганилади. Қонунчилик ҳужжатлари, архив манбалари, статистик маълумотлар ва илмий адабиётлар таҳлили асосида давлат ёшлар сиёсатининг шаклланиши, бандлик ва тадбиркорлик имкониятлари, таълим тизимидаги ислохотлар ҳамда маданий-маънавий муҳитнинг ёшлар фаоллигига таъсири кўриб чиқилади. Тадқиқот натижасида ёшлар ижтимоий фаоллигининг ривожланиши уч босқичга — адаптация ва ҳуқуқий замин яратиш (1991–2000), барқарор ривожланиш ва институционаллашув (2001–2016) ҳамда сифат жиҳатдан янги ёндашувлар (2017 йилдан) даврларига ажратилади. Таҳлил институционал-ҳуқуқий асослар зарурий, аммо етарли бўлмаган шарт эканлигини, уларнинг самарадорлиги иқтисодий ва таълим омиллари билан бевосита боғлиқлигини кўрсатади. Хулоса сифатида ёшлар мустақиллик даврида ижтимоий сиёсат объектидан уни амалга оширишда фаол иштирок этувчи субъектга айланганлиги асосланади.

Калит сўзлар: ёшлар, ижтимоий фаоллик, институционал-ҳуқуқий омиллар, бандлик, тадбиркорлик, таълим ислохотлари, фуқаролик жамияти.

Abstract. The article analyzes the factors that influenced the development of youth social activity in Uzbekistan during the years of independence (1991–2024). The study systematizes these factors into four categories: institutional and legal, economic, educational, and cultural-spiritual. Based on the analysis of legislative documents, archival sources, statistical data, and scholarly literature, the research examines the formation of the state youth policy, employment and entrepreneurship opportunities, reforms in the education system, and the impact of the cultural and spiritual environment on youth social activity. The findings identify three stages in the development of youth social activity: adaptation and the establishment of a legal framework (1991–2000), stable development and institutionalization (2001–2016), and qualitatively new approaches (from 2017 onward). The analysis demonstrates that while institutional and legal foundations are a necessary condition, they are not sufficient in themselves, and their effectiveness is directly linked to economic and educational factors. The study concludes that during the independence period, young people in Uzbekistan have evolved from being an object of social policy into active subjects participating in its implementation.



Keywords: youth, social activity, institutional and legal factors, employment, entrepreneurship, educational reforms, civil society.

Кириш

Ёшлар ижтимоий фаоллиги замонавий жамиятда давлат тараққиётининг муҳим кўрсаткичларидан бири сифатида эътироф этилади. Ёш авлоднинг жамият ҳаётидаги онгли ва фаол иштироки мамлакатнинг ижтимоий-сиёсий барқарорлиги ҳамда узоқ муддатли ривожланиши учун замин яратади. Шу боис мустақиллик йилларида Ўзбекистонда ёшлар ижтимоий фаоллигининг шаклланиши ва ривожланишига таъсир этган омилларни ўрганиш долзарб илмий аҳамият касб этади.

Собиқ иттифоқ парчаланганидан сўнг ёшлар билан ишлашнинг марказлашган модели инкирозга учради ва янги ижтимоий-иқтисодий шароитда ёшлар фаоллигини рағбатлантиришнинг ўзига хос механизмлари шакллана бошлади. Ушбу жараённи ҳолисона баҳолаш ёшлар фаоллигига таъсир этувчи ҳуқуқий, иқтисодий, таълимга оид ва маданий-маънавий жиҳатларни яхлит тизим сифатида ўрганишни тақозо этади.


Мавзунинг айрим жиҳатлари О.Р.Топилдиев, Ў.К.Қаюмов, Б.О.Жуманиязов ва бошқа тадқиқотчиларнинг ишларида, шунингдек халқаро ташкилотлар (Жаҳон банки, ЮНИСЕФ, Халқаро меҳнат ташкилоти) ҳамда миллий статистика органларининг ҳисоботларида ёритилган. Бироқ ёшлар ижтимоий фаоллигига таъсир этувчи омилларни яхлит тизим сифатида қамраб олган ва уларнинг ривожланишини даврий босқичларга ажратган комплекс тадқиқотлар нисбатан кам учрайди.

Мазкур мақоланинг мақсади мустақиллик йилларида Ўзбекистонда ёшлар ижтимоий фаоллигининг ривожланишига таъсир этган омилларни тизимли таҳлил қилиш ва ушбу жараённинг асосий босқичларини аниқлашдан иборат. Ушбу мақсадга эришиш учун қуйидаги вазифалар белгиланди: ёшлар фаоллигига таъсир этувчи институционал-ҳуқуқий, иқтисодий, таълимга оид ва маданий-маънавий омилларни ўрганиш; ушбу омилларнинг ўзаро боғлиқлигини аниқлаш; ёшлар ижтимоий фаоллиги ривожланишини даврий босқичларга ажратиш.

Тадқиқот методлари ва манбалари

Тадқиқот тарихий-хронологик, қиёсий-таҳлилий ва статистик усуллар асосида амалга оширилди. Тарихий-хронологик усул ёшлар сиёсатининг шаклланиш жараёнини изчил кузатиш имконини берди; қиёсий таҳлил Ўзбекистондаги жараёнларни бошқа постсовет давлатлари (Россия, Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон) тажрибаси билан таққослашга хизмат қилди; статистик усул эса демографик, бандлик ва таълим кўрсаткичлари динамикасини баҳолашда қўлланилди.

Мақоланинг манбавий базасини Ўзбекистон Республикасининг қонунлари ва меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлари, давлат архивлари фондлари, статистик тўпламлар, халқаро ташкилотларнинг (Жаҳон банки, ЮНИСЕФ, Халқаро меҳнат ташкилоти,



OECD) таҳлилий ҳисоботлари ҳамда мавзуга оид илмий адабиётлар ташкил этади.

Натижалар ва уларнинг таҳлили

Ёшлар ижтимоий фаоллиги — бу ёш авлоднинг жамият ҳаётида онгли равишда иштирок этиш, ижтимоий жараёнларга таъсир кўрсатиш, ўз ҳуқуқ ва манфаатларини ифода этиш ҳамда жамоат ишларида фаол позициясини намоён қилиш жараёнидир. Ушбу фаоллик сиёсий иштирок (сайлов жараёнлари, жамоатчилик кенгашлари), ижтимоий фаоллик (волонтерлик, ижтимоий лойиҳалар), иқтисодий фаоллик (тадбиркорлик, бандлик), маданий-ижодий фаоллик (фестиваллар, танловлар, спорт) ва рақамли фаоллик (ахборот-коммуникация технологиялари орқали фуқаролик иштироки) каби кўринишларда намоён бўлади. Мустақиллик йилларида ёшлар ижтимоий фаоллигининг ўсишига бир қатор ўзаро боғлиқ омиллар таъсир кўрсатган бўлиб, уларни институционал-ҳуқуқий, иқтисодий, таълимга оид ва маданий-маънавий омиллар сифатида тизимлаштириш мумкин.


Собиқ иттифоқ даврида ёшлар билан ишлаш ўзига хос хусусиятга эга бўлиб, улар жамиятнинг мустақил ижтимоий қатлами сифатида эмас, балки комсомол ташкилотлари тизимининг таркибий қисми сифатида қаралган. Ёшларнинг эҳтиёжлари, қизиқишлари ва фаолият йўналишлари асосан марказлашган давлат бошқаруви орқали белгиланган. Ушбу даврда оммавий иштирок тамойили устувор бўлиб, ёшларнинг меҳнат отрядларига жалб этилиши, ягона мафкуравий қарашлар асосида тарбияланиши ҳамда ташқи кўринишда муайян стандартларга риоя этиш кенг тарқалган амалиёт ҳисобланган¹.

1990-йилларда Ўзбекистон ва бошқа постсовет давлатларда ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий янгиланишлар жараёнлари кечди. Марказлашган режали иқтисодиётдан бозор муносабатларига ўтиш, давлат бошқарув тизимининг қайта ташкил этилиши ҳамда мулкчилик шакллариининг диверсификацияси жамият ҳаётига сезиларли таъсир кўрсатди. Илмий адабиётларда 1991 йилдан бошлаб мустақил тараққиётнинг дастлабки ўн йилигида ёшлар ижтимоий фаоллигини ошириш борасида мамлакатда ҳукм сурган вазият индивидуал хусусиятларга эга бўлса-да, барча постсовет давлатларида кечаётган умумий тенденция сифатида баҳоланади. Совет даврида ҳукмрон бўлган коллективизм ва давлат кафолатларига таянган моделнинг инқироzi постсовет жамиятларида ёшлар қадриятлари тизимининг жиддий ўзгаришларга дуч келишига олиб келди. Хусусан, ёшлар онгида индивидуалликка йўналтирилган стратегиялар устувор аҳамият касб эта бошлади².

Шу йили қабул қилинган «Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг

1 Елисеєв А.Л., Леонова О.В. Комсомол как проводник государственной молодежной политики советского государства / Вестник государственного и муниципального управления. 2020, Т. 9, № 3. – стр. 32–42. <https://doi.org/10.22394/2225-8272-2020-9-3-32-42>.

2 Давыдова М.А. Ценности коллективизма и индивидуализма в молодежной среде (опыт эмпирического исследования). www.civisbook.ru/files/File/Davidova.pdf.



асослари тўғрисида»ги қонун³ эса ёшларни жамият ҳаётида фаол иштирок эттириш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлашга қаратилган концептуал ёндашувларни мустаҳкамлади. Ўзбекистон Республикасининг 1992 йилда қабул қилинган Конституцияси фуқароларнинг жамоат ишларида иштирок этиш ҳуқуқини кафолатлади⁴. Натижада ёшлар нафақат ижтимоий гуруҳ сифатида, балки ҳуқуқий мақомга эга фаол субъект сифатида тан олинди.

Мазкур ҳуқуқий асосларнинг амалий аҳамияти бир неча жиҳатда намоён бўлди. Биринчидан, ёшларнинг жамиятдаги ўрни ва давлат тараққиётидаги роли ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланди. Иккинчидан, ёшлар ташкилотларининг шаклланиши ва улар фаолиятини таъминлашга қаратилган давлат ҳамда нодавлат институтларининг вазифалари тизимлаштирилди. Учунчидан, ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш масаласида давлат ва нодавлат ташкилотлар ўртасидаги ўзаро муносабатларни ҳуқуқий тартибга солиш учун умумий ва базавий меъёрлар жорий этилди⁵.

Кейинги йилларда институционал-ҳуқуқий асослар такомиллаштирилиб борилди. 1999 йил 10 июнда қабул қилинган ПФ-2326-сонли Фармон билан Зулфия номидаги Давлат мукофоти таъсис этилди⁶. Шунингдек, санъат соҳасида Республика «Ниҳол» мукофоти таъсис этилиб, 2008 йилда ушбу дастурда 10 000 нафарга яқин ёш йигит-қиз иштирок этган⁷.

Маданият, санъат, илм-фан ва спортни тарғиб этишда 2004 йилда ташкил қилинган «Ўзбекистон маданияти ва санъати форуми» жамғармаси алоҳида институционал аҳамият касб этди. Жамғарма 2005 йилдан бошлаб таълим грантлари дастурини амалга оширди. 2006 йилда ташкил этилган «Келажак овози» ёшлар ташаббуслари маркази иқтидорли талабалар учун стипендиялар ва педагогик грантлар дастурларини ўз фаолиятига қўшди⁸.

Ёшлар ижтимоий фаоллигига таъсир этувчи иқтисодий омиллар орасида бандлик, тадбиркорлик имкониятлари ва миграция жараёнлари алоҳида ўрин тутди. Россия ва постсовет давлатларида ўтказилган қиёсий социологик тадқиқотлар натижаларидан кўрсатадигани, давлат кафолатларининг қисқариши ва жамоавий ижтимоий таянч механизмларининг заифлашуви ёшлар ўртасида ижтимоий пассивликнинг шаклланишида асосий омиллардан бирига айланган. Ишсизликнинг ўсиши, ижтимоий кафолатларнинг қисқариши ва кадриятлар тизимидаги ўзгаришлар ёш авлоднинг жамиятдаги ўрнини қайта белгилашни тақозо этди. Россия, Қозоғистон,

3 429-ХП-сон 20.11.1991. Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида.


4 08.12.1992. Конституция Республикаси Ўзбекистон.

5 Shodmonov B. Ўзбекистон ёшларга оид давлат сиёсати ва унинг ҳуқуқий асослари ишлаб чиқилишининг тарихий босқичлари / FarDU Ilmiy Xabarlari. 2020-1. – Б. 90-97.

6 Ўзбекистон Республикаси Хотин-қизлар қўмитаси жорий архиви маълумотлари. 2000-2008 йил ҳисоботлари.

7 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2000 йил 25 августдаги 334-сонли Қарори. 334-сон 25.08.2000. Ёш истеъдодлар учун «Ниҳол» мукофотини таъсис этиш тўғрисида.

8 45-сон 14.03.2006. Ўзбекистон ёшларининг «Келажак овози» республика танловини ҳар йили ўтказиш тўғрисида (lex.uz). Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 14.03.2006.



Қирғизистон ва Тожикистонда ҳам ўхшаш тенденциялар кузатилиб, иқтисодий инқирозлар ва ёшлар миграциясининг кучайиши умумий минтақавий хусусият касб этган.

Ўзбекистонда 1990-йилларда иқтисодий ўсишнинг чекланганлиги, яширин ишсизлик ва камбағаллик даражасининг юқорилиги сақланиб қолган. Жаҳон банки таҳлилларида ўтиш даврида иқтисодий барқарорликни таъминлаш жараёнида ижтимоий ҳимоя механизмларининг заифлиги аҳолининг, хусусан, ёшларнинг ижтимоий фаоллигига салбий таъсир кўрсатган⁹.

Ўзбекистоннинг демографик вазияти ёшлар бандлиги масаласини янада кескинлаштирди. Мамлакат аҳолиси 1991 йилда тахминан 20,2 миллион бўлган бўлса, 2016 йилга келиб қарийб 31 миллионга етди¹⁰. Аҳоли ичида ёшлар катта улушни ташкил этиб, 1990-йилларда ёшлар ишсизлиги 1999 йилда 26,9 фоизга (Жаҳон банки маълумотларига кўра 27,9 фоиз) кўтарилган. 2016 йилга келиб бу кўрсаткич 11–12 фоиз атрофида сақланиб қолди¹¹. Демографик босим ва иш билан таъминлаш имкониятларининг чеклангани ёшлар ижтимоий фаоллигини шакллантиришда сезиларли тўсиққа айланди¹².

Марказий Осиё давлатлари бўйича қиёсий таҳлил ёшлар ишсизлигининг умумминтақавий хусусият касб этганини кўрсатади. Жаҳон банки маълумотларига кўра, Ўзбекистонда 1994 йилда ёшлар ишсизлиги 15,41 фоизни ташкил этган, 1998 йилда 27,76 фоизга ўсган ва кейинги йилларда тизимли камайиш кузатилган — 2018 йилда 12,10, 2024 йилда 10,94 фоизга тушган¹³.

Ёшлар ижтимоий фаоллигига таъсир этувчи иқтисодий жараёнларнинг яна бир муҳим кўриниши меҳнат миграцияси бўлди. Иш ўринларининг талаб даражасидан кам бўлиши мамлакат ёшларини меҳнат миграциясида иштирок этишни ечим сифатида қарашга ундади. Расмий маълумотларга кўра, 2009 йилда республикадан ташқарига иш излаб чиққанларнинг 36,3 фоизини 16–29 ёшдагилар ташкил этган¹⁴.

Бандлик муаммосини ҳал этишда давлат томонидан қабул қилинган чора-тадбирлар муайян ижобий натижаларни берди. 1992 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёш ижодкорларни давлат йўли билан қўллаб-

9 An assessment of the social protection system in Uzbekistan Based on the Core Diagnostic instrument (CODI) A joint report by ILO, UNICEF, and the World Bank. 2020. – P. – 9-11. https://documents1.worldbank.org/curated/en/924061602058394488/pdf/An-Assessment-of-the-Social-Protection-System-in-Uzbekistan-Based-on-the-Core-Diagnostic-Instrument-CODI-A-Joint-Report-by-ILO-UNICEF-and-the-World-Bank.pdf?utm_source=


10 ЎзТАГ. Ўзбек телеграф агентлиги. 1991 йилдан бери Ўзбекистон аҳолиси деярли 11 млн кишига ўсди. 1991 йилдан бери Ўзбекистон аҳолиси деярли 11 млн кишига ўсди.

11 Таблица данных — уровень безработицы среди молодежи в Узбекистане. Таблица данных — уровень безработицы среди молодежи в Узбекистане | ФРЕД | Федеральный резерв Сент-Луиса.

12 Топилдиев О.Р. Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни (1991-2008 йй.). Тарих фанлари номз. диссерт. автореферати. – Тошкент – 2011. – Б. 12-14.

13 Всемирный банк. Таблица данных — уровень безработицы среди молодежи в Узбекистане. fred.stlouisfed.org; Всемирный банк. Учебные ресурсы и данные о мировой экономике. theglobaleconomy.com.

14 Қаюмов Ў.К. Фуқаролик жамиятининг шаклланиши шароитида Ўзбекистон ёшларининг ижтимоийлашув жараёнлари. Масъул муҳаррир: А.Ж.Холбеков – Тошкент: “Ижтимоий фикр” жамоатчилик фикрини ўрганиш Маркази, 2011. – 42 бет.



қувватлаш чоралари тўғрисида»ги 461-сонли Фармони қабул қилинди¹⁵. 1995 йилда Вазирлар Маҳкамасининг «Бозор ислохотлари талабларини ҳисобга олган ҳолда қишлоқ ёшларнинг касбий таълимини қайта йўналтириш бўйича чоратадбирлар тўғрисида»ги 296-сонли қарори натижасида қишлоқда хусусий секторни ривожлантириш ва ёшларни тадбиркорлик фаолиятига кенг жалб этиш чоралари белгиланди¹⁶. 1998 йилда хусусий тадбиркорлик ва кичик бизнесни рағбатлантириш тўғрисидаги ПФ-1987-сонли Фармон¹⁷, 2000 йилда «Тадбиркорлик фаолияти эркинликларининг кафолати тўғрисида»ги қонун, 2005 йилда тадбиркорлик субъектларини ҳуқуқий ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштиришга доир Президент фармонлари¹⁸, 2011 йилнинг «Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик» йили¹⁹ деб эълон қилиниши ёшлар тадбиркорлигини ривожлантириш учун ҳуқуқий замин яратди.

Амалга оширилган ишлар натижасида 2002 йил охири — 2003 йил бошида республикада фаолият юритаётган тадбиркорларнинг 51,6 фоизини 30 ёшгача бўлган ёшлар ташкил этди. 2008 йилда мамлакат аҳолисининг 64 фоизи 30 ёшгача бўлган ёшлар бўлиб, 16–29 ёшдагилар меҳнат ресурсларининг 34,8 фоизини ташкил этган²⁰. Иш билан банд бўлган жами аҳолининг 76 фоиздан кўпроғи тадбиркорлик соҳасида меҳнат қилган ва ушбу тадбиркорларнинг 55 фоизини ёшлар ташкил этган²¹.

Бироқ, ижобий тенденцияларга қарамасдан, бандлик масаласи ўз долзарблигини сақлаб қолди. Аҳоли таркибида ёшлар улушининг ортиб бориши, бандликка эришишда кўмакка муҳтож бўлганлар сонининг юқори сақланишига сабаб бўлди. 2007 йилда «Ижтимоий фикр» маркази ва «Маҳалла» жамғармаси томонидан Тошкент шаҳридаги 52 маҳалланинг тадқиқ этилиши натижаларига кўра, яшовчи 77,4 минг меҳнатга лаёқатли аҳоли орасидан 7,1 минг фуқаро иш билан таъминланиши зарур бўлиб, улардан 6,8 минг кишини ёшлар ташкил этган²². Бу бандлик масаласида ҳал этилмаган муаммолар мавжудлигидан далолат берди.

Ёшлар ижтимоий фаоллигининг ўсишида таълим тизимида амалга оширилган

15 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1992 йил 28 августдаги “Ўзбекистоннинг ёш ижодкорларини давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш чоралари тўғрисида”ги 461-сонли Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/168900>.

16 ЎзР МДА. М-26- фонд, 1-рўйхат, 25- йиғма жилд, 71 – варак.

17 Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. ПФ-1987-сон 09.04.1998. Хусусий тадбиркорлик, кичик бизнесни ривожлантиришни янада рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида (lex.uz).


18 Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. 69-II-сон 25.05.2000. Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида (lex.uz); ПФ-3619-сон 14.06.2005. Тадбиркорлик субъектларини ҳуқуқий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида.

19 Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик йили” Давлат Дастури тўғрисидаги 2011 йил 7 февраль Қарори. // Халқ сўзи, 2011, 10 февраль.

20 Ўзбекистон Республикаси меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги жорий архиви. 2008 йил ҳисоботлари. – Б. 53.

21 Каримов И.А. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш-бизнинг олий мақсадимиз. 17-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – Б.159.

22 Қаюмов Ў.К. Фуқаролик жамиятининг шаклланиши шароитида Ўзбекистон ёшларининг ижтимоийлашув жараёнлари. Масъул муҳаррир: А.Ж.Холбеков – Тошкент: “Ижтимоий фикр” жамоатчилик фикрини ўрганиш Маркази, 2011. – 39 бет.



туб ўзгаришлар ҳал қилувчи омил сифатида намоён бўлди.

1992 йилда қабул қилинган «Таълим тўғрисида»ги қонунда таълим соҳасининг асосий вазифалари белгиланиб, собиқ иттифоқ мафкурасидан воз кечиш, унинг ўрнини янги дунёқараш билан тўлдириш ва жаҳон андозаларига мос таълим тизимини шакллантириш устувор йўналишлар сифатида кўрсатилди²³. Таълим тизимининг барча босқичларида ёшларга билим бериш, уларни маънавий, ахлоқий ва касбий жиҳатдан тарбиялаш тизими жорий этила бошланди.

Мактаб таълимининг ривожланиши аҳоли сонининг ўсиш динамикасига мос тарзда кечди. 1990 йилда дарсликлар билан таъминланиш 55,4 фоиз бўлган бўлса, 2011 йилда бу кўрсаткич 100 фоизга етди. Аммо замонавий компьютер ўқув хоналари билан таъминланганлик 76 фоиз, лаборатория жиҳозлари билан таъминланганлик 81,2 фоиз даражасида сақланиб, таълим инфратузилмасининг янгиланиши талаб даражасига тўлиқ жавоб бермаган²⁴.

Олий ва ўрта махсус таълим тизимида 1997–2007 йиллар давомида 100 дан ортиқ йўналиш, 265 та мутахассислик ва 700 та касб бўйича бир миллиондан ортиқ мутахассис тайёрланди²⁵. Ишлаб чиқаришдан ажралган ҳолда таҳсил олувчи 16 ёшли ва ундан каттаёшдагиларнинг сони 1995–2006 йиллар мобайнида 601,6 минг кишига (1,7 баробар) кўпайиб, меҳнат ресурслари таркибида уларнинг улуши 7,7 фоиздан 9,9 фоизга ошди²⁶.

1993 йил 5 февралдаги «Ўзбекистон ўқувчи ёшларини рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 555-сонли Президент фармони ва Вазирлар Маҳкамасининг 1993 йил 25 мартдаги 157-сонли қарори орқали олий таълим муассасалари талабалари ва аспирантларини мукофатлаш, моддий рағбатлантириш тизими шакллантирилди²⁷. Истеъдодли ёшларни излаб топиш, уларнинг қobiliяти ва истеъдодини ўстириш бўйича махсус жамғармалар ташкил этилди. 1993–2008 йилларда Ўзбекистон Республикаси Президенти стипендияси совриндорлари 200 нафардан ортиқ, Навоий, Улуғбек, Беруний, Ал-Бухорий, Ибн Сино номли стипендиялар совриндорлари эса 2200 нафарни ташкил этди²⁸.

Таълим тизимининг ривожланиши натижасида ёшларнинг халқаро ютуқлари

23 636-ХП-сон 02.07.1992. Таълим тўғрисида.

24 Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2011 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2012-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 90-91 бетлар.

25 Каримов И.А. Инсон манфаатлари устуворлигини таъминлаш - барча ислохотлар ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидир- Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислам Каримовнинг 2007 йилда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2008 йилда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи. 2008 йил 9 февраль.

26 Ўша жойда.

27 Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Ўқувчи ёшларни мукофатлаш ва моддий рағбатлантириш тўғрисида” 1993 йил 25 мартдаги 157-сонли қарори. <https://api.ziyounet.uz/uploads/books/652/5b1a5716316a3.pdf>.

28 Топилдиев О.Р. Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни (1991-2008 йй.). Тарих фанлари номз. диссерт. автореферати. – Тошкент – 2011. – Б. 19.



йил сайин ошиб борди. Халқаро фан олимпиадаларида Ўзбекистонлик ўқувчилар 2018 йилда 8 та медал (2 та кумуш, 6 та бронза), 2019 йилда 13 та (1 та олтин, 3 та кумуш, 9 та бронза), 2020 йилда 25 та (2 та олтин, 8 та кумуш, 15 та бронза)²⁹, 2022–2023 ўқув йилида 81 та (7 та олтин, 36 та кумуш, 38 та бронза) медал қўлга киритди³⁰. 2023–2024 ўқув йилида 55 нафар мактаб ўқувчиси математика, кимё, биология, физика ва информатика фанлари бўйича нуфузли халқаро олимпиадаларда 8 та олтин, 15 та кумуш, 32 та бронза медалини олди. «Катта бешлик» фан олимпиадаларида медаллар сони охириги тўрт йилда 2 баробар кўпайди³¹.

Хорижий тилларни ўзлаштириш кўрсаткичлари ҳам сезиларли ўсиш динамикасини намоён этди. IELTS имтиҳонидан 5,5 ва ундан юқори балл олганлар сони 2020 йилдаги 10 152 нафардан 2024 йилда 52 706 нафарга етди (5 баробар ўсиш). 7–8 балл (C1 даража) олганлар 1 807 нафардан 13 424 нафарга (7,4 баробар), 8,5–9 балл (C2 даража) олганлар 14 нафардан 332 нафарга кўпайди³². «Ибрат фарзандлари» лойиҳаси доирасида 1,4 миллиондан ортиқ ёшлар 23 та хорижий тилни, «Устоз АИ» лойиҳаси доирасида 250 минг ёшлар 10 га яқин замонавий касбни он-лайн ўрганишлари таъминланди³³. 2021–2022 йилларда 400 нафар ёшлар «Эл-юрт умиди» жамғармаси орқали хорижга ўқишга юборилди³⁴.

Аммо таълим соҳасидаги ютуқлар билан бир қаторда сезиларли муаммолар ҳам мавжуд бўлиб қолди. 2023 йил World Inequality Database on Education маълумотларига кўра, Ўзбекистонда бошланғич таълимда қамров деярли универсал (95–99 фоиз) бўлишига қарамадан, юқори босқичларда тенгсизлик сезиларли кузатилган: юқори ўрта таълимда қамров 70–80 фоизга пасайган, олий таълимда 18–22 ёшлилар орасида 20–30 фоизни ташкил этган. Оилалар даромадларига қараб олий таълимга бўлган эҳтиёж қондирилишида бир неча баробар фарқ кузатилган³⁵. Programme for International Student Assessment тадқиқотлари доирасида ўқиш ва математика бўйича минимал саводхонлик даражасидан паст натижа кўрсатганлар улуши 50 фоиздан юқори бўлган³⁶. Шаҳар мактабларида натижалар қишлоқ жойларга нисбатан 10–15 фоизга юқори³⁷, техник ва муҳандислик йўналишларида қизлар улуши 30–35 фоиз

29 Ўзбекистонда 2017-2021 йилларда ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси натижалари. Factbook. Yuksalish umummilliy harakati. YUMH.UZ – Б. 103.

30 Юрт тақдири ёшларга боғлиқ. https://uza.uz/uz/posts/yurt-taqdiri-yoshlarga-bogliq_551974?ysclid=mbabac418g83995229.

31 Бу йил мактабларни 14 мингдан зиёд ўқувчи олтин ва кумуш медаллар билан битирди. <https://yuz.uz/news/bu-yil-maktablarni-14-mingdan-ziyod-oquvchi-oltin-va-kumush-medallar-bilan-bitirdi?ysclid=mbabdmduc2635428850>.

32 IELTS имтиҳонидан 5,5 ва ундан юқори балл олган ёшлар сони 2024 йилда 52 706 нафарга етди. <https://yuz.uz/news/ielts-imtihonidan-55-va-undan-yuqori-ball-olgan-yoshlar-soni-2024-yilda-52-706-nafarga-etdi>. (мырожаат килинган сана 12.01.2025).

33 2024-yilda yoshlar bilan ishlash, ularning muammolarini hal etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar hamda bu borada kelgusidagi ustuvor vazifalar to'g'risida Hay'at yig'ilishi. https://api-portal.gov.uz/uploads/1e34e849-b053-3edf-80bf-7682e3ff7246_media_.pdf.

34 Президент ёшлар байрамига ташриф буюрди. www.president.uz/uz/lists/view/5302.

35 Uzbekistan. Access and completion WIDE, 2023: <https://www.education-inequalities.org/countries/uzbekistan>.

36 OECD, 2022: <https://www.oecd.org/pisa/>.

37 Uzbekistan. Access and completion WIDE, 2023: <https://www.education-inequalities.org/countries/uzbekistan>.



атрофида баҳоланган³⁸.

2010-йиллар ўрталарида ҳам таълим имкониятлари юқори эмас эди. Мустақил давлатлар ҳамдустлиги таҳлилларига кўра, 2015–2016 ўқув йилида Ўзбекистонда ҳар 1 000 кишига 29 нафар олий таълим талабаси тўғри келган — бу МДХ давлатлари орасида энг паст кўрсаткичлардан бири бўлган³⁹. Бироқ, 18–22 ёшдагилар орасида олий таълимда қатнашиш даражаси 2018–2023 йилларда 13 фоиздан 45 фоиздан юқори даражага кўтарилиши ислохотларнинг таъсирчанлигидан далолат беради⁴⁰.

Ёшлар ижтимоий фаоллигига маданий-маънавий омилларнинг таъсири икки томонлама хусусият касб этган: бир томондан, маданият ва спорт соҳаларидаги имкониятларнинг кенгайиши ёшлар фаоллигини рағбатлантирган, иккинчи томондан, ахборот муҳитидаги салбий тенденциялар ёш авлод маънавий тарбиясига таҳдид солган.

Янги аср чегарасида глобал ахборот тармоғининг кенг тарқалиши ва чет давлатлардан ахлоқий номувофиқ матбуотнинг кириб келиши ёш авлод маънавий тарбиясига жиддий таҳдид солди. Ёшлар ўртасида маънавий-ахлоқий нормаларга зид ҳолатлар пайдо бўла бошлади: видеонамойиш марказларида зўравонлик ва ахлоқсизлик саҳналарига бой видеоматериалларнинг кўпайиши кузатилди⁴¹. Ушбу ҳолатларнинг олдини олиш мақсадида видеонамойиш марказлари фаолиятини қатъий назоратга олиш чоралари белгиланди, 2007 йилда «Оммавий ахборот воситалари тўғрисида»ги қонунга тегишли ўзгартириш ва қўшимчалар киритилди⁴².

Муҳокама

Ёшлар ижтимоий фаоллигини шакллантириш жараёни муайян салбий кўрсаткичлар ва муаммолар билан ҳам кечди. Ушбу муаммоларни ҳисобга олиш ижтимоий фаоллик масаласини ҳар томонлама баҳолаш учун зарурдир.

Ёшлар ижтимоий фаоллиги ривожланишини мамлакатдаги ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар, институционал тузилма ва фаоллик шакллариининг ўзгариш динамикаси асосида уч босқичга бўлиш мумкин.

Биринчи босқич (1991–2000): адаптация ва ҳуқуқий замин яратиш. Ушбу давр собиқ иттифоқнинг парчаланиши натижасида вужудга келган янги ижтимоий муносабатлар тизимига мослашув билан характерланади⁴³. Ёшлар ижтимоий фаол-

38 European Training Foundation, 2022: <https://www.etf.europa.eu>).

39 Молодежь в Содружестве Независимых Государств и Цели Устойчивого Развития / Статкомитет СНГ, ЮНФПА. М. 2021. – стр. 20.

40 Национальный Комитет Республики Узбекистан по статистике. Охват высшим образованием увеличился на 40,9 %.

41 “O‘zarxiv” agentligi, фонд М-69, руйхат 1, с.б. 105, 128-129 бетлар.

42 Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви. Фонд 975, руйхат 30. С.б. 109. – 194-195 бетлар

43 Қаюмов Ў.К. Фуқаролик жамиятнинг шаклланиши шароитида Ўзбекистон ёшларининг ижтимоийлашув



лигининг ҳукукий ва ташкилий асослари яратилди, аммо фаоллик асосан адаптацион хусусият касб этди. Иқтисодий инқироз, ишсизлик ва ижтимоий кафолатларнинг қисқариши ёшлар орасида нисбий пассивликни вужудга келтирди. Бу давр собиқ тузум мафкурасидан воз кечиш ва янги қадриятлар тизимини шакллантириш зарурати билан белгиланади.

Иккинчи босқич (2001–2016): барқарор ривожланиш ва институционаллашув. Бу даврда ёшлар сиёсати институционал жиҳатдан мустаҳкамланди: ёшлар ташкилотларининг қамрови кенгайди, таълим, фан, маданият ва спорт соҳаларида қўллаб-қувватлаш механизмлари такомиллашди⁴⁴. Давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ўртасидаги ҳамкорлик кенгайди⁴⁵. Бироқ, бандлик муаммоси, таълим сифати бўйича ҳудудий тенгсизлик ва уюлмаган ёшлар билан ишлаш механизмларининг шаклланмаганлиги ушбу даврнинг асосий камчиликлари бўлди.

Учинчи босқич (2017 йилдан ҳозирги кунга): сифат жиҳатдан янги ёндашувлар. Ёшларни давлат ва жамият бошқарувида кенг жалб этиш, тадбиркорлик, илмий-тадқиқот ва ижодий фаолиятни рағбатлантиришга йўналтирилган комплекс чора-тадбирлар амалга оширилди⁴⁶. Фаоллик шакллариининг диверсификациялашуви кузатилди: илк босқичларда асосан таълим ва жамоат ишлари билан чекланган фаоллик кейинчалик сиёсий, ижтимоий, маданий ва рақамли соҳаларни ҳам қамраб олди. Ёшлар фаоллигининг ҳудудий қамрови кенгайиб, қишлоқ ёшларининг ижтимоий ташаббусларда фаол иштирок этиши учун шароитлар яратилди⁴⁷.

Хулоса

Ёшлар ижтимоий фаоллиги масаласи мамлакат мустақиллик даврининг дастлабки йилларидан бошлаб давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айланди. Фаоллик ўсишига таъсир этувчи омиллар ўзаро боғлиқ тизим ҳосил жараёнлари. – “Ижтимоий фикр” жамоатчилиқ Маркази, 2011. – 94 бет; Юнусов К. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларининг ривожланиш босқичлари / Илмий хабарнома, АДУ, №3 2013 йил. – Б. 38-41.

44 Сабиров Н. Сиёсий модернизация жараёнида фуқаролик жамияти институтларининг роли / Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Issue – 2 № 3 (2021) / ISSN 2181-1415. – Б. 147-152.

45 Жуманиязов Б.О. Ўзбекистонда мустақиллик даврида фуқаролик жамияти институтларининг шаклланиши ва ривожланиши тарихи. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси автореферати. – Нукус – 2022. – Б. 14-21; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги «Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-2124-сонли Қарори. (ўз кучини йўқотган).

46 ПФ-6017-сон 30.06.2020. Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини тубдан ислоҳ қилиш ва янги босқичга олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида; ПФ-5106-сон 05.07.2017. Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб-қувватлаш тўғрисида; 23-сон 18.01.2021. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатини 2025 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида.

47 Саъдуллаев А. Ёшлар билан ишлашнинг янги механизмлари / “Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Maqolalar to‘plami. – Toshkent – 2023. – 15-20 betlar; Юсупова Э.Ф. Молодёжь Узбекистана в политических процессах / ПОЛИТОЛОГИЯ «QAZAQTANÝ» республиканский научный журнал 3 (27) 09 / 2025. – Стр. 46-53.



қилади: институционал-хуқуқий асосларнинг яратилиши (қонунлар, мукофотлар, ташкилотлар) муҳим, аммо етарли бўлмаган шарт бўлиб, унинг самарадорлиги иқтисодий омиллар (бандлик, тадбиркорлик имкониятлари) ва таълим тизимининг ривожланиши билан бевосита боғлиқ. Маданий-маънавий омиллар эса ёшлар фаоллигининг мазмунини ва йўналишини шакллантирувчи муҳим кўрсаткич сифатида намоён бўлди.

Институционаллашув жараёнида ёшлар ташкилотлари ижтимоий фаолликни рағбатлантирувчи майдон ва ёшлар манфаатларини ифода этувчи ижтимоий институт сифатида шаклланди. Бироқ, мустақилликнинг дастлабки ўн йиллиги давомида асосий ташаббус давлат томонидан амалга оширилиб, ёшлар ўртасида нисбий пасивлик кузатилди. Бунга аввалги тузумнинг парчаланиши, янги воқеликларга мослашув жараёни ва ижтимоий-иқтисодий қийинчиликлар сабаб бўлди.

Кейинги босқичларда институционал тизим мустаҳкамланиб, ёшлар фаоллиги ривожда ижобий тенденциялар кузатилди: фаоллик шакллари диверсификациялашди, ҳудудий қамров кенгайди, давлат ва фуқаролик жамияти институтлари ўртасидаги ҳамкорлик чуқурлашди. Натижада ёшлар нафақат ижтимоий сиёсат объекти, балки уни амалга оширишда фаол иштирок этувчи субъект сифатида шаклланди.



TALABALAR ORASIDA KITOBXONLIK DARAJASI

Tolibjonova Malika Xusanovna PhD, Dotsent,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Xaytimetov Jumamurat Shamuratovich,

katta o'qituvchi Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Raxmatullayeva Laylo Xudaynazar qizi,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Bugungi kunda hayotimizning har bir soniyasini egallab borayotgan axborot texnologiyalari, cheksiz ijtimoiy tarmoqlar va raqamli ko'ngilochar vositalar yoshlar dunyoqarashini o'ziga xos tarzda shakllantirmoqda. Shunday shiddatli davrda biz tez-tez bir savolga duch kelamiz: kitob mutolaasi o'zining avvalgi qadr-qimmatini saqlab qoldimi? Yoki gadjetlar ekranidagi qisqa va mazmunsiz xabarlar kitobning o'rnini butunlay egallab bo'ldimi? Albatta, kitob o'qish — bu shunchaki vaqt o'tkazish emas, balki insonning ichki dunyosini boyitish, tanqidiy fikrlashni shakllantirish va kasbiy kamolotga erishishning yagona ishonchli yo'lidir.

Aynan shu dolzarb masalalarni o'rganish, talabalar orasida kitobxonlikning haqiqiy manzarasini aniqlash maqsadida biz bir oylik tadqiqotimizni olib bordik. Ushbu maqolada biz 2026-yilning 2-fevralidan 5-martiga qadar o'tkazilgan so'rovnomalari natijasi va ulardan kelib chiqqan xulosalarimiz bilan bo'lishmoqchimiz.


Tadqiqotimiz davomida biz faqatgina quruq raqamlarni tahlilini emas, balki talaba yoshlarning kitobga bo'lgan ichki munosabatini ham tushunishni maqsad qildik. So'rovnomada jami 100 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilarning 79 nafar qiz bolalar va 21 nafar o'g'il bolalar tashki etadi. Ishtirokchilarning yoshi asosan 18-21 yosh oralig'ida bo'lib, ularning eng katta qismini 19 yoshli (42 nafar) va 20 yoshli (33 nafar) talabalar tashkil qildi. Bu yosh davri inson hayotidagi eng serg'ayrat va bilimga tashna davr hisoblanadi. Fakultetlar kesimida olganda, asosan 1-son va 2-son davolash ishi fakultetining 2 va 3-kurs talabalari faol ishtirok etishdi. Bu esa tibbiyot sohasida o'qiyotgan, dars yuklamalari nihoyatda og'ir bo'lgan talabalar ham kitobxonlik masalasiga befarq emasligini isbotladi.

Tahlillar natijasida olingan ko'rsatkichlar bizni ham quvontirdi, ham biroz o'ylantirib qo'ydi. Quvonarli tomoni shundaki, talabalarimizning 39 foizi kuniga 1 soat va undan ko'proq vaqtni faqat mutolaa uchun sarflar ekan. Bu raqam bugungi "tezkor axborot" asri uchun yomon ko'rsatkich emas. Yana 31 foiz talaba 30 daqiqadan 1 soatgacha vaqtini kitob bilan o'tkazadi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni ham bor: bizning haftalik mutolaa vaqtimiz jahonning yetakchi universitetlari bilan solishtirganda hali ancha ortda ekanligi ko'rinib qoldi. World Culture Score Index va xalqaro ma'lumotlarga ko'ra, AQShning Ivy League universitetlari talabalari haftasiga 25-30 soat, Xitoy talabalari esa 35-40 soatgacha mutolaa qilishadi. Bizda esa bu ko'rsatkich



o‘rtacha 8-12 soatni tashkil qilmoqda. Bu bizning hali o‘z ustimizda ishlashimiz, mutolaa madaniyatini faqatgina darslik bilan cheklab qo‘ymasligim kerak.


Talabalarning mutolaadan ko‘zlagan maqsadlari haqida so‘raganimizda, aksariyat ishtirokchilar (11%) “o‘zini rivojlantirish” javobini tanlashgan. 32 foiz ishtirokchi esa darslik kitoblarni mutolaa qilishini ta’kidlagan. Qiziqarli jihati shundaki, talabalarning 90 foizi o‘z ona tilida — o‘zbek tilida o‘qishni afzal ko‘radi. Rus va ingliz tillaridagi adabiyotlarga qiziqish mos ravishda 3% va 7% ni tashkil qildi. Bu bizga o‘zbek tilidagi sifatli badiiy va ilmiy adabiyotlar bazasini yanada kengaytirishimiz zarurligini uqtiradi. Format masalasiga kelganda, zamon qanchalik raqamlashmasin, talabalarimiz hali ham “jonli” kitobni — qog‘oz nashrlarni afzal ko‘rishini ta’kidlashgan. Kitob sahifalarining hidi va qo‘l bilan ushlab o‘qishning zavqi elektron formatdan ustun kelmoqda.




1-rasm: Talabalarning turli turda kitob o‘qish darajasi

Tadqiqot davomida talabalar qanday asarlar o‘qiyotgani bilan ham qiziqdik. Ro‘yxatning boshida O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asari turishi bizni hayron qoldirmadi. Bu asar insoniy munosabatlar va qalb dramasi sifatida bir necha avlodlar uchun sevimli bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” asarlari hamda zamonaviy motivatsion kitoblar, masalan, “Binafsha shu’lasi” asari eng ko‘p mutolaa qilinayotganlar qatoridan joy oldi. Tibbiyot talabalari ekanligimiz sohaviy kitoblarda ham namoyon bo‘ldi — “Mikrobiologiya” darsligi eng ko‘p o‘qilgan kitoblar ro‘yxatida kuchli beshlikka kirdi. Do‘stlarga tavsiya qilish masalasida esa yana o‘sha samimiy “Ikki eshik orasi” (16 marta) mutlaq yetakchilik qildi. Bu yoshlar orasida hali ham ma’naviy qadriyatlar, insoniylik va milliy adabiyotga bo‘lgan hurmat yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Biroq, kitobxonlik yo‘lidagi to‘siqlarni chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Tadqiqotimiz natijasida aniqlangan eng og‘riqli nuqta — vaqt masalasidir. Talabalarning 50 foizi



mutolaaga vaqt yetishmasligidan shikoyat qilgan. Albatta, tibbiyot universiteti darslari o‘ta qiyin va vaqtni ko‘p talab qiladi, ammo tahlil shuni ko‘rsatdiki, ikkinchi asosiy sabab — internet va telefon (35%). Biz ko‘p hollarda “vaqtim yo‘q” deymiz-u, lekin soatlab ijtimoiy tarmoqlardagi befoyda kontentlarni tomosha qilamiz. Bu esa bizda “vaqtni boshqarish” ko‘nikmasi yetishmasligini va mutolaani asosiy kun tartibiga kiritishda irodamiz yetmayotganini ko‘rsatadi. Kutubxona xizmatlaridan foydalanish bo‘yicha ham ahvol o‘rtacha: 58 foiz talabalar kutubxonaga faqat “ba’zan” borishadi. Bu esa kutubxonalarimizni shunchaki kitob saqlanadigan joydan, talabalar intiladigan zamonaviy kofebuk yoki mutolaa markazlariga aylantirishimiz kerakligini anglatadi.



2-rasm Kitob o‘qishga ko‘proq to‘sqinlik qiladigan holatlar.

Xulosa qilib aytganda, olib borgan tadqiqotimiz bizga ko‘p narsani o‘rgatdi. Talabalar kitob o‘qishni xohlashadi, ular kitobning foydasini bilishadi, ammo ularga ozgina turtki va to‘g‘ri muhit kerak. Bizning eng katta muammomiz — vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik va ijtimoiy tarmoqlar domiga tushib qolishdir. Shuning uchun ham oliy ta’lim muassasalarida mutolaa madaniyatini oshirish uchun faqat buyruqlar emas, balki jonli tadbirlar, qiziqarli kitobxonlar klublari va motivatsion uchrashuvlar o‘tkazish zarur. Kutubxonalarni zamonaviy va talaba uchun jozibador maskanlarga aylantirish, ularni yangi chiqayotgan jahon adabiyotlari bilan boyitish kechiktirib bo‘lmas vazifadir. Biz — ertangi kunning shifokorlarimiz, xalq salomatligi posbonlarimiz. Intelktual salohiyatimiz esa faqat darslik bilan cheklanib qolmasligi shart. Kitob bizning nafaqat bilimimizni, balki qalbimizni ham davolashga qodir. Keling, har kuni kamida 30 daqiqa vaqtimizni telefondan uzilib, qadrdon kitobimiz sahifalariga bag‘ishlaylik. Zero, mutolaa qiladigan millat hech qachon mag‘lub bo‘lmaydi.



ТРАВЕЛ ЖУРНАЛИСТИКАСИНИНГ ОАВ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ

М.ХУДАЙКУЛОВ, профессор кафедры ЮНЕСКО и специализированной
медии Узбекского государственного университета журналистики и
массовой коммуникации, доктор филологических наук.

АННОТАЦИЯ. Мазкур мақола журналистиканинг ўзига хос соҳа-тармоғи бўлган травел, яъни саёҳат журналистикаси, унинг матбуот назарияси ва амалиётига муносабати ва ўзига хос хусусиятлари ҳақидадир.

Калит сўзлар: Журналистика, травел журналистикаси, матбуот функциялари ва тамойиллари, публицистика, матбуот жанрлари, саёҳат журналистикаси.

АННОТАЦИЯ. Данная статья посвящена вопросу общественным и научным особенностям Трэвел-журналистики как вида специализированной медики, ее отношение к теории и практики печати.

Ключевые слова: Журналистика, трэвел-журналистика, печать, функции печати, принципы печати, публицистика, отражение, анализ, воздействие, жанры печати и публицистики.

Журналистика ижтимоий ҳаётни акс эттириш шаклларида бири, реал воқеликни билиш тадқиқ этиш ва унга қайтадан таъсир кўрсатишнинг муҳим воситаси ҳисобланади. Унинг асосий ижтимоий хусусияти унинг серкўламчилиги, яъни ҳартарафлама, ҳар ерда ҳозир ва ҳар нарсадан хабардорлигидадир. Яъни, оммавий ахборот воситалари ижтимоий-сиёсий ҳаёт ва фаолиятнинг ҳамма томонларига доимий ва актив таъсир кўрсатувчи ғоявий омилдир. Матбуот ўз навбатида турли соҳаларга бўлиниб кетади. Жумладан, ижтимоий-сиёсий ҳаётнинг муҳим масалаларини ёритувчи ижтимоий-сиёсий журналистика, иқтисодий ҳаёт ва ишлабчиқаришнинг турли соҳаларини акс эттирувчи иқтисодий-ишлабчиқариш журналистикаси, илм-фан масалаларига бағишланган илмий журналистика, ҳаётни бадиий адабиёт қонуниятлари билан ёритувчи ҳамда бадиий адабиётга хизмат қилувчи бадиий журналистика, ижтимоий ҳаёт иллатларига қарши курашда сатира ва юмор қонуниятларига асосланувчи ҳажвий журналистика, спорт журналистикаси, ҳарбий журналистика, болалар журналистикаси каби соҳалар билан бир қаторда ҳаётни ёритишда турли техник воситаларидан фойдаланувчи фотожурналистика, радио-журналистика, тележурналистика, интернет журналистикаси каби хиллари ҳам мавжуддир. Матбуотнинг бу турлари орасида ўзига хос яна бир бўлаги, умумий журналистиканинг бир қисми бордирки у травел, яъни саёҳат журналистикаси деб аталади.

Травел журналистикаси матбуотнинг ўзига хос, алоҳида бир кўриниши бўлиб унда инсон ҳаёти ва фаолиятининг бир бўлаги, унинг дунёни кўриш ва



билиши масалалари ўз аксини топади. Маълумки инсон ақлли мавжудот сифатида шаклланиш давридан бошлаб ер юзида яшаб келар экан ўз-ўзини таъминлаш, ҳаётий манфаатларини қондириш учун ер юзини кезган, турли жойларга, ҳатто минтақалардан минтақаларга кўчиб юрган. Бу аснода у янги кўрган ва бўлган жойларни кўрган, турли томондан баҳолаган, ўз манфаатлари асосида хулосалар чиқарган. Ана шу жараён кейинчалик инсониятнинг дунёни бадий акс эттириш борасида илк оғзаки ижод намуналари – эртақларда ўз ифодасини топган. “Бир бор экан, бир йўқ экан,” деб бошланадиган халқ оғзаки эртақларининг аксарияти ўз қаҳрамони ҳақида “Йўл юрибди, йўл юрса ҳам мўл юрибди, бориб-бориб... бир жойдан чиқиб қолибди. Қараса...” деган сўзлар билан бошланиши маълумдир. Бу инсоннинг дунёни кўриш ва билиш борасидаги дастлабки қадамларининг акс этишидир. Қадимги араб халқларининг дунёни кўриш-билиш ва ундан тегишли хулосалар чиқаришдан иборат бўлган машҳур “Минг бир кеча эртақлари”да ҳам турли мавзулар қаторида денгиз саёҳатлари акс этганлиги маълумдир. Бу эртақлар орасида денгиз сайёҳи Синдбод ҳақидаги эртақлар алоҳида ўрин тутди. Унинг бош қаҳрамони бўлмиш саёҳатчи Синдбод кемада кўп жойларга саёҳат қилади ва ва турли воқеаларни бошдан кечиради. Мазкур эртақлар туркуми саёҳат ҳақидаги халқ донолиги ва бадий ижодиётининг ўзига хос бирлашмасидан иборат бўлиб неча минг йиллардан буён ўқувчилар томонидан севилиб ўқиб келинади. Мазкур сатрлар муаллифи ҳам бу мавзуда ўсмирлар учун “Синдбоднинг янги саёҳатлари” деб аталмиш фантастик қисса ёзган бўлиб унда денгиз сайёҳи Синдбод ва унинг дўстлари саргузаштлари орқали мамлакатимиз тарихини кўчма-аллегорик тарзда бадий тасвирлашни ўз олдига мақсад қилиб қўйган эди. Мазкур асар ўзининг саёҳат оид аллегорик воқеалар тасвири билан ўтган аср инглиз ёзувчиси Жонатан Свифтнинг “Гулливёрнинг саёҳатлари” асарига монанд равишда ўз даврининг қатор ижтимоий масала ва муаммоларини акс эттирган эди.

Бадий асарларда саёҳат мавзуси муаллифнинг дунёқараши ва маҳорати асосида ўзига хос бадий ифодасини топса журналистик асарларда эса шакл ва мавзу жиҳатидан биров чекланган бўлади. Яъни журналист саёҳат пайтида кўрган ва билган ҳаёт воқеалари, факт ва муаммолар ва бошқа масалалар ҳақида тўғридан-тўғри маълум қилади, воқеа ва ҳодисаларни тасвирлайди, таҳлил қилади ва улардан маълум хулосалар чиқаради. Турган гапки бунда у матбуотнинг асосий қоидаларига амал қилади. Матбуотнинг асосий қоидалари эса унинг функциялари, тамойиллари ва бошқа хусусиятларидан иборатдир.

Матбуотнинг бош қоидалари аввало унинг функцияларида кўринади. Матбуот назариясида матбуот функциялари – у бажарадиган ижтимоий вазифалари масаласи алоҳида ўрин тутди. Функция сўзи латинча *functio* сўзидан олинган бўлиб, бажариладиган юмуш, фаолият деган маънони билдиради. Матбуотнинг функциялари деганда биз матбуот нашрлари ва оммавий ахборот воситаларининг доимий ва қонунийлик тусини олган фаолиятини, унинг мақсад ва йўналишларини тушунамиз. Матбуот функциялари борасида илмий-назарий фикр ва қарашлар турлича бўлиб бу масалага ҳар бир матбуотшунос олим ўз нуқтаи назаридан қарайди. Рус матбуотшунос олими Е.П. Прохоров матбуотнинг функциялари



сиёсий, информацион, бевосита ташкилотчилик ва дам олдириш хусусиятларидан иборат эканлигини таъкидлайди. Бошқа муатахассислар эса бошқачароқ фикрлар билдиришади. Матбуот ижтимоий ҳаётни акс эттириш шаклларида бири, реал воқеликни билиш тадқиқ этиш ва унга қайтадан таъсир кўрсатишнинг муҳим воситаси экан, шунга мувофиқ матбуотнинг ижтимоий вазифалари уч таркибий қисмга, қирраларга бўлинади. Биз бу қисмларни шартли равишда **тасвир, таҳлил ва таъсир** деб оламиз ҳамда матбуотнинг ижтимоий вазифаларини шу нуқтаи назардан ўрганиб чиқамиз. Демак, тасвир, яъни ижтимоий ҳаёт воқеаларини оммага кенг тарзда, тўла етказиб бериш – матбуотнинг асосий ижтимоий вазифаси, доимий равишда бажарадиган энг муҳим ишидир. Матбуот нашрлари ва оммавий ахборот воситалари – газеталар, журналлар, радио, телекўрсатувлар, ахборот агентликлари, интернетнинг ижтимоий тармоқ ва каналлари ҳар куни, ҳар соатда, ҳар дақиқада ана шу иш билан шуғулланадилар. Шундай экан, саёҳат журналистикасида ҳам бу функциядан кенг фойдаланилади, яъни саёҳатга борар жойи, мақсади, ўша ернинг географик жойлашуви, табиати ва бошқа муҳим масалалар ҳақида хабар беради. Тасвир информацион публицистикаси хабар, лавҳа, фотолавҳа, видеолавҳа, интервью каби жанрлардан, реклама воситасидан кенг фойдаланилади.

Матбуот ижтимоий ҳаёт воқеаларини тасвирлаш, улар ҳақида хабар бериш билан бирликда бу факт ва воқеаларни таҳлил қилиши ҳам лозим. Бу эса матбуотнинг иккинчи бош ижтимоий вазифаси **таҳлил** эканлигини кўрсатади. Таъбир жоиз бўлса матбуотнинг тасвир функцияси ижтимоий ҳаётнинг устки, кўзга кўриниб турган қатламларини акс эттирса ва онгнинг устки қатламига таъсир қилса, таҳлил ижтимоий ҳаётнинг чуқур қатламларини ўзида акс эттиради ва инсон онгининг чуқур қатламларига таъсир кўрсатади Матбуотнинг мазкур функцияси асосида саёҳат журналистикасида мақола, тақриз, шарҳ, обзор каби матбуот жанрларидан фойдаланилади.

Шуни таъкидлаш лозимки матбуот ижтимоий ҳаёт воқеаларини оддийлигича, беэҳтирос қайд этмайди, балки бутун тўлалиги билан, фикрлар мажмуи, ҳис-туйғулар билан акс эттиради. Матбуот бу вазифани бажаришда адабиётнинг турли воситаларидан, чунончи унинг типиклаштириш, образ яратиш, сюжет ва бошқа омилларидан кенг фойдаланади. Матбуот билан адабиётни бир-бирига боғлаб турувчи бир омил, ҳар икки ўзига хос ижтимоий ҳодисани синтез қилувчи бир муҳим соҳа борки, у ҳам бўлса – публицистикадир. Публицистика лотинча “Publicis” – ижтимоий деган маънони билдириб, адабий-сиёсий ижод турига айтилади. Публицистика – ижтимоий ҳаётни акс эттиришнинг алоҳида бир тури бўлиб, у фан, адабиёт, сиёсатнинг умумий синтезидан ташкил топади. Публицистика адабиёт ва санъатда ҳам ифода этилади, аммо унинг кенг ва бемалол иш кўрадиган майдони – матбуотдир. Шундай экан, саёҳат журналистикасида ҳам публицистикадан ҳамда унга хос бўлган бадиий адабиёт воситаларидан – жонлантириш, образли ифода, сюжет ва бошқа имкониятлардан кенг фойдаланилади. Бу саёҳатга доир бадиий лавҳа, йўл очерки, эссе каби жанрларда, телекўрсатув ва интернет материалларидан видео лавҳалар, ҳужжатли



фильмларда кенг қўлланилади.

Матбуот ижтимоий ҳаёт воқеаларини тасвирлаб ва уни таҳлил этибгина қолмасдан ижтимоий ҳаётга бевосита таъсир ҳам қилиши керак. Матбуотнинг бу хусусияти унинг функцияларидаги учинчи қиррани, яъни **таъсир** функциясини белгилаб беради. Матбуотнинг ҳаётга таъсири икки хил: бевосита ва билвосита бўлади. Бевосита таъсир ҳаёт воқеаларининг тасвири ва таҳлил орқали ўқувчилар онгига, ҳис-туйғуларига таъсир кўрсатишдир. Матбуотнинг ҳаётга билвосита таъсири эса матбуот материалларининг самарадорлиги, яъни натижа бериши билан ўлчанади. Яъни матбуотда кўтарилган ҳар қандай муаммо ҳал этилса, танқидий чиқишлар ўз самарасини берса ва жамият бошқарувининг қонун чиқарувчи, ижро этувчи ва суд ҳокимияти аралашуви натижасида ҳаётга татбиқ этилса ана шу вазифа бажарилган бўлади. Бу талаб ва имкониятлар саёҳат журналистикасида ҳам кенг қўлланилади.

Дунё травел журналистикасининг муҳим таркибини ташкил этувчи ўзбек саёҳат журналистикаси ҳам юқоридаги назарий ва ижодий имкониятлардан кенг фойдаланиб фаолият кўрсатмоқда ва бу соҳа замон талабларига мос равишда янада кенгайиб бормоқда.

Адабиётлар

1. Информация в печати. Краткий курс лекция. Составители К.Т.Ирназаров, Я.М.Маматова. – Т.: НУУз, 2000. – 85 стр.

2. Информационные жанры газетной публицистики. Хрестоматия. – М.: Издательство Московского университета, 1986. – 268 стр.

3. Ким М.Н. Репортаж. Технология жанра.С.- Пб.2005.

4. Корконосенко С. Г. Основы теории журналистики. – СПб, 1995. – 240 стр.

5. Лазутина Л. Основы творческой деятельности журналиста. Уч. пособие. – М.: МГУ, 2000. – 154 стр.

6. Мелибоев А., Несторенко Ф.П., Эрназаров К.Т., Маматова Я.М., Коробкин Д.И. Труд журналиста: Профессионализм, творчество, мастерство. Учебное пособие. Ташкент, УзНУ, 2002.

7. Мўминов Ф.А. Журналистика ижтимоий институт сифатида. – Т.: Университет, 1998. – 175 б.

8. Муминова Ф.И. Международная журналистика: теория и практика. –Т.: UMED-PATENT-PRESS 2006. – 192 стр.

9. Нестеренко Ф. П., Миралимов Ш. А. Журналистика: координаты профессии. – Т., 2001. – 36 стр.



10. Прохоров Е. П. Введение в теорию журналистики. – М.: «РИП-холдинг», 2002. 340 стр.

11. Рашидова Д.К. Интернет – источник журналистской информации СМИ. Лекции. Ташкент, “Университет”, 1999.

12. Тертычный А. А. Жанры периодической печати. – М.: Издательство «Аспект Пресс», 2000. 430 стр.

13. Xudoyqulov M. Jurnalistikaga kirish. Oquv qollanmasi – T.: Universitet, 2008. – 140 б.

14. М.Худойкулов. Журналистика ва публицистика. Ўқув қўлланмаси. –Т.: Университет, 2009. – 240 б.



BREND YARATISHDA EMOTSIONAL MARKETINGNING PAYDO BO‘LISHI VA ZAMONAVIY KO‘RINISHLARI

Gulrux Eshmurodova,

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti xalqaro jurnalistika fakulteti,
axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar yo‘nalishi magistranti*

Rezume: Mazkur maqolada brend shakllantirish jarayonida emotsional marketingning roli, uning tarixiy tadrijiy rivojlanishi va zamonaviy iqtisodiy sharoitdagi namoyon bo‘lish xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda marketing konsepsiyalarining an’anaviy mahsulotga yo‘naltirilgan modeldan iste’molchi hissiyotlariga asoslangan yondashuvga o‘tish evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Muallif tomonidan neyromarketing va storytelling (hikoya so‘zlash) usullari yordamida iste’molchi sodiqligini oshirish strategiyalari yoritib berilgan. “Adidas” va “Planters” kabi global brendlar misolida turli emotsional triggerlarning brend raqobatbardoshligini ta’minlashdagi samaradorligi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: emotsional marketing, brend yaratish, neyromarketing, iste’molchi xulq-atvori, storytelling, Adidas, Planters, brend sodiqligi, emotsional triggerlar.

Резюме: В статье исследуется роль эмоционального маркетинга в процессе создания бренда, этапы его исторического формирования и современные проявления в экономике. Анализируется эволюция маркетинговых концепций от продуктоориентированного подхода к модели, основанной на эмоциях потребителей. Автором раскрыты стратегии повышения лояльности потребителей с использованием инструментов нейромаркетинга и сторителлинга. На примере глобальных брендов “Adidas” и “Planters” научно обоснована эффективность эмоциональных триггеров в обеспечении конкурентоспособности бренда.

Ключевые слова: эмоциональный маркетинг, создание бренда, нейромаркетинг, поведение потребителей, сторителлинг, Adidas, Planters, лояльность к бренду, эмоциональные триггеры.

Summary: This article examines the role of emotional marketing in the branding process, its historical development, and its manifestations in the modern economy. The study analyzes the evolution of marketing concepts from a product-oriented approach to a consumer-oriented model based on emotions. The author explores strategies for enhancing consumer loyalty through neuromarketing and storytelling techniques. Us-



ing global brands like “Adidas” and “Planters” as case studies, the article scientifically proves the effectiveness of emotional triggers in maintaining brand competitiveness.

Keywords: emotional marketing, branding, neuromarketing, consumer behavior, storytelling, Adidas, Planters, brand loyalty, emotional triggers.

Kirish. XXI asr dunyo iqtisodiyotida brend tushunchasi kompaniyalar faoliyatining ajralmas qismi sifatida shakllanib ulgurdi. U allaqachon an’anaviy marketing kategoriyalaridan tubdan farq qiluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisaga aylandi. Zamonaviy bozor sharoitida mahsulot va xizmatlar o’rtasidagi funksional farqlar tobora kamayib borayotganligi sababli, iste’molchilar tanlovida asosiy rolni brendning mazmuniy, semantik va emotsional komponentlari egallamoqda. Shu nuqtai nazardan, brend yaratish jarayonida nafaqat sifat va narx omillari, balki iste’molchi ongida shakllanadigan hissiy tajriba, assotsiatsiyalar va qadriyatlar tizimi ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Iste’molchining qaror qabul qilish jarayoni asosan irratsional xarakterga (insonning mantiqqa, hisob-kitobga yoki aniq foydaga asoslanmagan xatti-harakatlariga) ega bo’lib, u ko’pincha emotsional omillar ta’sirida shakllanadi. Xususan, xaridorlarning taxminan 90 foizga yaqin qarorlari ongsiz ravishda, hissiy va intuitiv mexanizmlar asosida qabul qilinadi¹. Bu esa marketingda yangi tushuncha bo’lgan emotsional marketing yondashuvining shakllanishiga olib keldi. Emotsional marketing iste’molchi bilan chuqur psixologik aloqa o’rnatish, uning hissiyotlariga ta’sir etish va shu orqali brendga nisbatan sodiqlikni shakllantirishga qaratilgan faoliyat turi sifatida rivojlanib bormoqda.

Kuchli brend iste’molchi ongida ijobiy bilimlar tizimi va hissiy tajriba shakllantira olgan brenddir². Kotler va Keller esa marketingning zamonaviy bosqichini “inson markazli marketing” sifatida tavsiflab, unda iste’molchilarning hissiyotlari, qadriyatlari va hayot tarzi markaziy o’rin egallashini qayd etadi. Shu bois brend yaratish jarayonida emotsional komponentni hisobga olish nafaqat marketing samaradorligini oshiradi, balki uzoq muddatli raqobat ustunligini ta’minlash imkonini beradi.

Asosiy qism

Emotsional marketing — bu iste’molchining xarid qilish haqidagi qaroriga ta’sir ko’rsatish, brendga nisbatan eslanuvchanlik va sodiqlikni oshirish maqsadida inson hissiyotlarini (quvonch, qo’rquv, g’urur, sog’inch va h.k.) maqsadli tarzda uyg’otishga yo’naltirilgan marketing strategiyasidir³. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va

1 Zaltman G. How Customers Think: Essential Insights into the Mind of the Market. – Boston: Harvard Business School Press, 2003. – P. 18

2 Keller K.L. Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity. 4th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2013. – P. 68

3 Consoli D. A New Concept of Marketing: The Emotional Marketing // BRAND. Broad Research in Accounting,



raqobatning kuchayishi sharoitida marketing konsepsiyalari ham evolyutsion tarzda o'zgarib bordi. Dastlab marketing asosan mahsulot va uning funksional xususiyatlariga yo'naltirilgan bo'lsa, keyinchalik iste'molchi xulq-atvori, psixologiyasi va hissiy holati muhim omil sifatida qarala boshlandi⁴. Aynan shu jarayon natijasida emotsional marketing konsepsiyasi shakllandi. Emotsional marketing iste'molchilarning qadriyatlarini, ehtiyojlari va o'zini anglash darajasining o'zgarishi natijasida asta-sekin rivojlangan⁵. Ayniqsa, zamonaviy jamiyatda insonning nafaqat funksional ehtiyojlari, balki o'zini ifoda etish, identifikatsiya qilish va ijtimoiy maqomini ko'rsatish istagi kuchaygani emotsional marketingning shakllanishiga asos bo'ldi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab marketing konsepsiyalari evolyutsiyasida muhim burilish yuz berdi. Klassik marketingdan ijtimoiy-etik marketingga, undan esa interaktiv va munosabatlar marketingiga o'tish jarayonida iste'molchi bilan aloqalar chuqurlashdi⁶. Natijada marketing faoliyati nafaqat mahsulotni sotishga, balki iste'molchining hissiy tajribasini shakllantirishga yo'naltirila boshlandi. Shu nuqtai nazardan, emotsional marketingga iste'molchi ongiga ham, ong ostiga ham ta'sir etuvchi vosita sifatida qaraladi. Inson qarorlarining katta qismi ratsional emas, balki emotsional omillarga asoslanadi⁷. Bu esa marketing strategiyalarida psixologik va neyromarketing yondashuvlarining keng qo'llanilishiga olib keldi. Xususan, tadqiqotchi N. Konsoli emotsional marketingni: "Iste'molchilarda o'ziga xos tuyg'ularni uyg'otuvchi usullardan foydalangan holda shaxsiylashtirilgan xabarlarini yetkazish orqali brend va mijoz o'rtasida hissiy bog'liqlik o'rnatish san'ati" deb ta'riflaydi⁸. Bu jarayonda brend nafaqat tovar sotuvchi, balki ma'lum bir hissiy tajriba yetkazib beruvchi subyektga aylanadi. Emotsional marketingning asosiy vazifasi iste'molchining ong osti reaksiyalarini faollashtirishdan iborat. Iste'molchilar xarid qilish jarayonida mantiqiy xulosalardan ko'ra, ko'proq hissiy impulslarga tayanadilar. Shu nuqtai nazardan, emotsional marketing "iste'molchini xarid qilishga undash bilan bir vaqtda uning psixologik holatiga (quvonch, sog'inch yoki ishonch uyg'otish orqali) ta'sir ko'rsatuvchi strategik vosita" sifatida ko'riladi⁹.

Neyromarketing sohasidagi izlanishlar emotsional marketingning samaradorligini yanada yuqori bosqichga olib chiqdi. Brendga nisbatan shakllangan hissiy moyillik mijozning narx sezgirlikni pasaytiradi va brendga bo'lgan uzoq muddatli sodiqlikni Negotiation, and Distribution. – Bacău: EduSoft Publishing, 2010. – P. 52-59

4 Музыкант В.Л. Формирование бренда средствами PR и рекламы: учеб. пособие. – М.: Экономистъ, 2006. – С. 606.

5 Заруднева А.Ю. Бренд как форма реализации «зрелого» института товарного знака // Известия Волгоградского государственного технического университета. – Волгоград, 2006. – №7. – С. 10-15.

6 Щепакин М.Б., Хандамова Э.Ф., Бженникова Д.Г., Федюнина Е.А. Эмоционально-поведенческая концепция маркетинга в развитии моделей лидерства // Лидерство и менеджмент. – 2020. – Том 7. – № 2. – С. 123-142.

7 <https://www.litres.ru/margarita-akulich/emocionalnyy-marketing/>

8 Consoli D. A New Concept of Marketing: The Emotional Marketing // VILNIUS TECH Journals: Technological and Economic Development of Economy. – Vilnius, 2010. – Vol. 16, No. 2. – P. 346–359.

9 Gosh A., Gupta S. Impact of Emotional Marketing on Consumer Decision Making // International Journal of Marketing Studies. – Semantic Scholar, 2024. – P. 12-25.



ta'minlaydi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, emotsional marketing bu “mahsulotning o'zini emas, balki mijozning ushbu mahsulotni iste'mol qilish orqali o'zi haqida shakllantiradigan ijobiy tasavvurini sotish strategiyasidir”¹⁰.

Brendning zamonaviy talqinida ham emotsional komponent markaziy o'rin egallaydi. Tadqiqotlarga ko'ra, brend oddiy savdo belgisi emas, balki iste'molchi ongida shakllangan tasavvurlar, assotsiatsiyalar va hissiy bog'lanishlar majmuasidir¹¹. Shu sababli brend yaratish jarayonida nafaqat mahsulot sifati, balki uning iste'molchida qanday hissiy taassurot uyg'otishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Brend evolyutsiyasi jarayonida “tovar — savdo belgisi — brend” zanjiri kuzatiladi. Ushbu jarayonning eng yuqori bosqichida brend iste'molchining shaxsiy identitetining bir qismiga aylanadi. Bu esa emotsional marketingning eng yuqori darajadagi natijasi sifatida baholanadi, chunki iste'molchi brend orqali o'zini ifodalay boshlaydi.

Iste'molchi bilan uzoq muddatli hissiy aloqani shakllantirish quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- a) brend orqali hissiy tajriba yaratish;
- b) iste'molchi bilan kommunikativ yaqinlikni kuchaytirish;
- c) sodiqlikni shakllantirish;
- d) brendni iste'molchi identitetining bir qismiga aylantirish¹².

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar rivoji emotsional marketingni yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda brendlar iste'molchi bilan real vaqt rejimida muloqot qiladi, individual yondashuvni qo'llaydi va personalizatsiya orqali kuchli hissiy aloqa o'rnatadi.

Bugun aynan emotsional marketing vositalaridan samarali foydalangan kompaniyalar bozorda yuqori natijalarga erishmoqda. Masalan, “Adidas” brendi o'zining marketing strategiyasida nafaqat sport mahsulotlarini targ'ib qilish, balki motivatsiya, o'ziga ishonch va muvaffaqiyat g'oyalarini ilgari surish orqali iste'molchilar bilan kuchli emotsional aloqa o'rnatgan. Ushbu brend 1949-yilda Adolf Dassler tomonidan Germaniyada asos solingan bo'lib, o'zining ko'p yillik faoliyati davomida shunchaki poyabzal ishlab chiqaruvchidan innovatsiyalar, yuqori sifat va individual yutuqlar ramziga aylangan, bugungi kunda esa emotsional marketingning “ilhomlantiruvchi brend” modelining eng yorqin namunasi sifatida e'tirof etiladi¹³. “Adidas” brendi iste'molchi bilan kommunikatsiyani shunchaki mahsulot xususiyatlari ustiga emas,

10 Radvanski M., Petrov I. Emotional Marketing and Consumer Behavior: The Psychology of Branding // ResearchGate Global Publications. – 2026. – Art. ID 383139867.

11 Щепакин М.Б., Хандамова Э.Ф., Бженникова Д.Г., Федюнина Е.А. Эмоционально-поведенческая концепция маркетинга в развитии моделей лидерства // Лидерство и менеджмент. – 2020. – Том 7. – № 2. – С. 123-142.

12 Щепакин М.Б., Хандамова Э.Ф., Бженникова Д.Г., Федюнина Е.А. Эмоционально-поведенческая концепция маркетинга в развитии моделей лидерства // Лидерство и менеджмент. – 2020. – Том 7. – № 2. – С. 123-142.

13 <https://www.adidas-group.com/en/about/history>



balki chuqur psixologik motivatsiya va “o‘z-o‘zini namoyon qilish” ehtiyoji ustiga quradi. Brendning “Impossible is Nothing” (Hech narsa imkonsiz emas) kabi global kampaniyalari iste’molchida brendga nisbatan shunchaki sport kiyimi ishlab chiqaruvchisi emas, balki hayotiy qiyinchiliklarni yengishda “hamroh” va “ilhom manbai” obrazini shakllantiradi¹⁴. Bu yondashuv neyromarketing nuqtai nazaridan mijozning brend bilan emotsional bog‘liqligini ta’minlab, mahsulotning narxi va texnik tavsiflaridan ustun turuvchi sodiqlikni yaratadi.

“Adidas” marketingida emotsional triggerlarning samaradorligi uning “Storytelling” (hikoya so‘zlash) texnikasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, brend Lionel Messi yoki Muhammad Ali kabi afsonaviy sportchilarning muvaffaqiyat yo‘lidagi og‘riqlari va hissiyotlarini ko‘rsatish orqali, oddiy xaridorda “men ham qila olaman” degan emotsional reaksiyani uyg‘otadi. Bunday hissiy rezonans iste’molchining brendni o‘z shaxsiyati bilan identifikatsiya qilishiga olib keladi¹⁵. Natijada “Adidas” mahsulotini sotib olish subyektiv darajada muvaffaqiyatga daxldorlik hissini beradi, bu esa beqaror bozor sharoitida brendning raqobatbardoshligini ta’minlovchi asosiy nomoddiy aktiv hisoblanadi.

Amerikaning eng qadimiy va taniqli brendlaridan biri bo‘lgan “Planters” 1906-yilda italiyalik immigrant Amedeo Obichi tomonidan asos solingan bo‘lib, bir asrdan ko‘proq vaqt davomida gazaklar bozorida yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda¹⁶. Brendning o‘ziga xosligi uning 1916-yilda yaratilgan ramziy qahramoni Mr. Peanut (Janob Yeryong‘oq) obrazida namoyon bo‘ladi¹⁷. Bu personaj marketing tarixidagi eng muvaffaqiyatli antropomorfik brend timsollaridan biri hisoblanib, iste’molchilar ongida barqarorlik, ishonch va samimiylilik tuyg‘ularini shakllantirgan. Akademik nuqtai nazardan, “Planters” brendi emotsional marketingning “hazil va hayrat” modelini qo‘llash orqali o‘z auditoriyasi bilan aloqa o‘rnatadi. “Adidas” brendi motivatsiya va jiddiylikka tayansa, “Planters” aksincha, iste’molchi bilan “do‘stona suhbat” qurish, kutilmagan kreativ burilishlar (masalan, Mr. Peanut qahramonining “vafoti” va “qayta tug‘ilishi” kampaniyasi¹⁸) orqali hissiy hayajon uyg‘otish strategiyasini tanlagan. Bu yondashuv brendning nafaqat mahsulot sifatida, balki madaniy hodisa sifatida qabul qilinishiga xizmat qiladi va raqobatbardosh bozorda brend eslanuvchanligini keskin oshiradi. U qo‘llaydigan “hissiy kutilmaganlik” effekti neyromarketingda diqqatni jalb qilishning eng samarali vositasi bo‘lib, iste’molchida brendga nisbatan ijobiy hissiy moyillikni paydo qiladi.

Xulosa

¹⁴ <https://www.adidas-group.com/en>

¹⁵ Thompson C. J., Holt D. B. How Brands Become Icons: The Principles of Cultural Branding. – Boston: Harvard Business Press, 2004. – P. 35-42.

¹⁶ <https://www.planters.com/our-story/>

¹⁷ <https://www.planters.com/mr-peanut/>

¹⁸ <https://www.planters.com/mr-peanut/>




Emotsional marketing brend yaratish jarayonining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, uning shakllanishi marketing konsepsiyalarining evolyutsiyasi, iste’molchi xulq-atvorining o‘zgarishi va zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Raqobatbardosh brend yaratishda nafaqat funksional, balki emotsional qiymatni ham shakllantirish hal qiluvchi omil hisoblanadi. Axborot oqimi haddan tashqari ko‘p bo‘lgan raqamli muhitda faqatgina iste’molchi bilan hissiy rezonansga kirisha olgan brendlarga uzoq muddatli strategik ustunlikka ega bo‘lishi mumkin.

Olib borilgan tahlillar asosida emotsional marketingning brend yaratishdagi ahamiyati bo‘yicha quyidagi xulosalar shakllandi:

1. Zamonaviy bozorda mahsulotning funksional xususiyatlari (sifati, narxi) raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun yetarli emas. Iste’molchilar brendni o‘z shaxsiyatining bir qismi sifatida qabul qilishi uchun u bilan hissiy bog‘liqlik o‘rnatilishi zarur.
2. “Adidas” misolida ko‘ringanidek, muvaffaqiyat va qiyinchiliklar haqidagi hikoyalar (storytelling) iste’molchida brendga nisbatan daxldorlik hissini uyg‘otadi va uni “ilhom manbai” darajasiga ko‘taradi.
3. “Planters” keysi shuni ko‘rsatadiki, doimiy bir xillikdan qochish va kreativ kutilmagan triggerlar (hazil, personajning o‘zgarishi) brendning eslanuvchanligini keskin oshiradi va uzoq muddatli sodiqlikni ta’minlaydi.
4. Xarid qilish qarorlarining katta qismi ong ostida shakllanishi sababli, emotsional triggerlar (quvonch, g‘urur, hayrat) iste’molchining brend tanlash mexanizmini boshqaruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Takliflar

1. O‘zbekiston korxonalari o‘z marketing strategiyalarida faqat mahsulot tavsifini berishdan voz kechib, milliy qadriyatlar, oilaviy rishtalar yoki shaxsiy muvaffaqiyatlarga asoslangan emotsional platformalarini yaratishlari lozim.
2. Brendlar iste’molchi bilan shunchaki “sotuvchi-xaridor” munosabatida emas, balki “do‘stona hamroh” sifatida muloqot qilishlari, ijtimoiy tarmoqlarda interaktiv va kutilmagan kontentlar orqali hissiy aloqani kuchaytirishlari tavsiya etiladi.
3. Yirik mahalliy ishlab chiqaruvchilarga reklama kampaniyalarini boshlashdan oldin iste’molchilarning hissiy reaksiyalarini sinovdan o‘tkazish tizimini yo‘lga qo‘yish taklif qilinadi.
4. Raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holda, har bir mijozning individual hissiy ehtiyojlariga moslashgan “hissiy servis” modelini yaratish zarur.



AYOLLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING QIYOSIY KRIMINOLOGIK TAVSIFI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA

Jinoyat ishlari buyicha Tomdi tuman sudining raisi

Mirzayeva Aziza Asatovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollar tomonidan sodir etiladigan firibgarlik jinoyatlarining kriminologik xususiyatlari milliy va xorijiy tajriba asosida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda ayol firibgarlarning ijtimoiy-demografik portreti, jinoyat sodir etish motivlari va determinantlari ochib berilgan. Shuningdek, milliy qonunchilikdagi boʻshliqlar, xususan, gender statistikasining yetishmasligi muammolari oʻrganilib, “genderga sezgir profilaktika” va “raqamli monitoring” tizimini joriy etish boʻyicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit soʻzlar: ayollar jinoyatchiligi, firibgarlik, kriminologik tavsif, gender statistikasi, latentlik, determinantlar, xorijiy tajriba, profilaktika, “Ayollar daftari”, raqamli monitoring.


Abstract: This article provides a comparative criminological analysis of fraud crimes committed by women based on national and international experience. The study reveals the socio-demographic portrait of female fraudsters, their motives, and crime determinants. Furthermore, gaps in national legislation, particularly the lack of gender-disaggregated statistics, are examined. Practical recommendations are proposed, including the implementation of “gender-sensitive prevention” and “digital monitoring” systems to mitigate female criminality.

Keywords: female criminality, fraud, criminological profile, gender statistics, latency, determinants, foreign experience, prevention, “Women’s Notebook”, digital monitoring.

KIRISH

Bugungi kunda ayollar jinoyatchiligi, xususan, firibgarlik masalasi global va milliy darajada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy jinoyatlar milliy iqtisodiyotning barqarorligi va rivojlanishi uchun jiddiy tahdid hisoblanadi.¹ Ayollar jinoyatchiligi

1 Gʻofurova D.M. Ayollar tomonidan sodir etilgan iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – Toshkent: Innovative Academy, 2025. – Vol. 1. – B. 1040-1043.



erkaklar jinoyatchiligidan hajmi bo'yicha kam bo'lsa-da (taxminan 15%), uning o'sish sur'atlari erkaklarnikidan 2-3 baravar yuqori bo'lishi mumkinligi kuzatilmoqda.²

Ayollar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning oila va jamiyatga ta'siri erkaklar jinoyatidan ko'ra xavfliroq tus olmoqda, chunki bu bevosita kelajak avlod tarbiyasi va oila institutining inqiroziga olib keladi.³ Firibgarlik ayollar o'rtasida eng keng tarqalgan iqtisodiy jinoyat turi bo'lib, uning murakkabligi, raqamli texnologiyalardan foydalanilishi va aniqlash qiyinligi ushbu mavzuni chuqur tadqiq etishni taqozo qiladi.

Manbalarda ayollar jinoyatchiligi bo'yicha quyidagi qiyosiy ko'rsatkichlar keltirilgan:

- O'zbekistonda 2021-yilda ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar ichida firibgarlik yetakchi bo'lib, 2295 ta holat qayd etilgan.⁴ 2024-yilda jinoyat sodir etgan ayollarning umumiy soni 7163 nafarga yetgan. Jami jinoyat sodir etgan shaxslar tarkibida ayollar ulushi 2010-yildagi 16,3% dan 2024-yilda 11,9% gacha o'zgargan.

- Buyuk Britaniyada firibgarliklarning faqat 25% qismi ayollar tomonidan sodir etiladi.⁵ AQSh va Kanadada esa bu ko'rsatkich yuqoriroq — 38% ni tashkil qiladi. Xalqaro miqyosda ish joyida aktivlarni o'zlashtirish (asset misappropriation) jinoyatida ayol firibgarlarning ehtimoli erkaklarnikidan 3 baravar yuqori ekanligi aniqlangan.⁶

Ayollar huquqlari va ularning jamiyatdagi mavqeini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlar ushbu muammoni o'rganishda poydevor bo'lib xizmat qiladi:

- BMT Nizomi (1945): Inson huquqlari, erkak va ayollarning teng huquqliligi tamoyillarini belgilab bergan.⁷

- Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (1952): Ayollarning

2 Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.04.2023-yildagi O'RQ-829-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.


3 G'ofurova D. Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminalistik tavsifi // Scientific progress. – Toshkent, 2021. – № 2. – B. 1062-1066.

4 G'ofurova D.M. Ayollar tomonidan sodir etilgan iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – Toshkent: Innovative Academy, 2025. – Vol. 1. – B. 1008.

5 Tauveron L. A Female Lens on Financial Crime Offences // Economic Crime Insight. – 2025. – June 6.

6 Hilliard T., Neidermeyer P.E. The gendering of fraud: an international investigation // Journal of Financial Crime. – 2018. – Vol. 25(1). – B. 13-16.

7 Usmonov D.Q. Xalqaro huquqda ayollar huquqlari // Innovative Development in Educational Activities. – Toshkent, 2024. – Vol. 3, Issue 7. – B. 28-34.



saylovlarda ishtirok etishi va davlat xizmatida teng huquqliligini e'lon qilgan.

– Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya (CEDAW, 1979): Ishtirokchi davlatlarga ayollarning barcha sohalarida kamsitilishini bartaraf etish majburiyatini yuklaydi.

– Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi (1995): Ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish va jamiyatdagi o'rnini yaxshilash bo'yicha aniq strategiyalarni belgilagan.⁸

– O'zbekistonda so'nggi yillarda ayollar huquqlarini himoya qilish va jinoyatchilik profilaktikasiga oid tizimli islohotlar amalga oshirildi:

– 2023-yil 11-apreldagi O'RQ-829-sonli Qonun: Xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish maqsadida 5 ta kodeks va 10 ta qonunga o'zgartirishlar kiritildi, "oilaviy zo'ravonlik" tushunchasi jinoiy javobgarlikka tortildi.⁹

– "O'zbekiston – 2030" Strategiyasi: Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va boshqaruv lavozimlaridagi ulushini 30 foizga yetkazish maqsadini belgilagan.¹⁰

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-martdagi Farmoni: Xotin-qizlar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik uchun jazoni kuchaytirish, huquqbuzarliklar profilaktikasini yangi bosqichga ko'tarish choralarini belgiladi.¹¹


Biroq, statistik ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati va firibgarlik usullarining raqamli transformatsiyasi ushbu jinoyat turi ortidagi asl sabablar (determinantlar), ayol jinoyatchining psixologik portreti va xorijiy tajribadagi samarali preventiv modellarni yanada chuqurroq tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Ushbu tadqiqot aynan mana shu jihatlarni qiyosiy kriminologik tahlil qilish orqali milliy profilaktika tizimini

8 Usmonov D.Q. Xalqaro huquqda ayollar huquqlari // Innovative Development in Educational Activities. – Toshkent, 2024. – Vol. 3, Issue 7. – B. 28-34.

9 Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.04.2023-yildagi O'RQ-829-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.

10 O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 03/23/158/0694-son.

11 Xotin-qizlar va bolalar huquqlari himoyasini kuchaytirish, ularga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldini olish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.03.2026-yildagi PF-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).



takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflarni ilgari surishni maqsad qiladi.

ASOSIY QISM

Ayollar tomonidan sodir etiladigan firibgarlik jinoyatlarining kriminologik tavsifi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, u nafaqat huquqbuzarlikning miqdoriy ko'rsatkichlarini, balki ayol jinoyatchi shaxsining psixofiziologik xususiyatlarini ham qamrab oladi. Ushbu bo'limda firibgarlikning gender aspektlari, ayol firibgarlarning ijtimoiy-demografik portreti hamda ushbu jinoyat turini keltirib chiqaruvchi determinantlar tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Ilmiy manbalarda ayollar firibgarligining sabablari quyidagi omillar bilan izohlana-di:


- Ijtimoiy-iqtisodiy omillar: Ishsizlik, doimiy daromad manbaining yo'qligi va qashshoqlik ("muhtojlik" motivi).
- Psixologik motivlar: Tamagirlik, nufuzli buyumlarni sotib olish istagi yoki ji-noiy yo'l bilan topilgan mablag'larni oila ehtiyojlariga sarflash ("oilaviy tamagirlik").
- Gender xususiyatlari: Ayollar jismoniy kuch talab qilmaydigan, aqliy faollik va psixologik manipulyatsiyaga asoslangan jinoyatlarga (o'g'rilik, firibgarlik, o'zlashtir-ish) ko'proq moyillik ko'rsatadilar.
- Ekstremal sharoitlar: Oilaviy nizolar, o'tmishdagi psixologik travmalar va zo'ravonlik qurboni bo'lish ayollarni o'zini himoya qilish yoki qasos olish maqsadida jinoyat yo'liga undashi mumkin.¹²

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar jinoyatchiligi erkaklarnikidan hajmi bo'yicha kam bo'lsa-da, uning o'sish sur'atlari erkaklarnikidan yuqori bo'lishi hisoblanadi. Ayol firibgarlarning ijtimoiy-demografik portretiga ko'ra, ularning o'rtacha yoshi 30-32 yoshni tashkil etadi, biroq asosiy qismi 35 yoshdan oshgan xotin-qizlardir.¹³ Bu ularning kasbiy faoliyati va oilaviy munosabatlari barqarorlashgan davrga to'g'ri ke-ladi. Ma'lumot darajasiga ko'ra, firibgarlik sodir etgan ayollar orasida o'rta maxsus va oliy ma'lumotlilar ulushi ortib bormoqda, bu esa jinoyatning intellektual xususiyati-ni ko'rsatadi. Shuningdek, mahkum ayollarning 67,7 foizi bolali bo'lib, ularning har to'rtinchisi ikki yoki undan ortiq farzandga ega.¹⁴

12 O'rinova D.A. Ayollarda jinoyatga moyillikning psixologik sabablari // Nauka, innovatsii i obrazovanie: klyuchevye vektory obshchestvennogo progressa. – Farg'ona, 2024. – № 1. – B. 117-119.

13 Ayollar tomonidan sodir etilgan iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – Toshkent: Innovative Academy, 2025. – Vol. 1. – B. 1040-1052.

14 Snoska: G'ofurova D.M. Ayollar tomonidan sodir etilgan iqtisodiyot asoslariga qarshi ji-



Ayollar firibgarligining psixologik xususiyatlari erkak firibgarlarnikidan keskin farq qiladi. Ayollar jismoniy kuch ishlatishni talab qilmaydigan, aqliy faollik va hissiyotlarga ta'sir o'tkazishga asoslangan usullarni afzal ko'radilar. Ularning jinoyat sodir etish usullarida "ishonchni suiiste'mol qilish" yetakchi o'rin tutadi. Xususan, ayollar ko'pincha o'zlarining ijtimoiy rollari (ona, hamkasb, muhtoj ayol) orqali jabrlanuvchining hissiyotlariga ta'sir o'tkazadilar. Xalqaro miqyosda ayol firibgarlarning ish joyida aktivlarni o'zlashtirish (asset misappropriation) ehtimoli erkaklarnikidan 3 baravar yuqori ekanligi, bu sohada ularga ko'proq ishonch bildirilishi bilan izohlanadi.

Ayol firibgar shaxsi intellektual salohiyatga ega, ko'p hollarda oilaviy va moddiy muammolar ta'sirida jinoiy yo'lni tanlagan, psixologik manipulyatsiya usullarini mukammal egallagan shaxs sifatida tavsiflanadi.


Xorijiy davlatlarda ayollar firibgarligiga qarshi kurashning turli modellari mavjud. Masalan, Buyuk Britaniyada firibgarliklarning 25 foizi ayollar tomonidan sodir etilsa, AQSh va Kanadada bu ko'rsatkich 38 foizni tashkil qiladi. Buyuk Britaniya tajribasiga ko'ra, ayollar ko'pincha "hamkor-jinoyatchi" (co-conspirators) rolida namoyon bo'ladilar va asosan erkak rahbarlar tomonidan jinoiy sxemalarga jalb qilinadilar. Bunga qarshi kurashda "Jinsdan tashqari tenglik modeli" (Buyuk Britaniya) samarali qo'llaniladi, u iqtisodiy rivojlanish va gender muvozanatini saqlash orqali jinoyatchilikni kamaytirishni ko'zlaydi.

Xorijiy tajribada preventiv choralarning eng samaralisi — "genderga sezgir yondashuv" (gender-sensitive approach) hisoblanadi. Bu model tergov jarayonida an'anaviy stereotiplardan voz kechishni va ayollarning jinoiy rollarini chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi.¹⁵ Masalan, Filippinda investitsiya firibgarliklarining oldini olishda ayollar va erkaklar uchun alohida axborot kampaniyalari o'tkaziladi, chunki ayollar ko'proq "romantik firibgarliklar" (romance scams), erkaklar esa kriptovalyuta sxemalari qurboni bo'lishadi. Shuningdek, korxonalar ichida ayol rahbarlar ulushining ortishi korruptsiyani kamaytirishi haqidagi ilmiy qarashlar xalqaro profilaktika tizimining bir qismiga aylangan.¹⁶

Xorijiy mamlakatlar tajribasi firibgarlikka qarshi kurashda iqtisodiy imkoniyatlarni noyatlar // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2025. – Vol. 1. – B. 1040-1052.

15 Saydivaliyeva X.X. "Ayollar huquqlari" va "gender tengligi" tushunchalari: o'zaro munosabat va farqlar // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. – Toshkent, 2024. – № 4 (13). – B. 29-33

16 Tauveron L. A Female Lens on Financial Crime Offences // Economic Crime Insight. – 2025. – June 6.



kengaytirish va gender profilini to'g'ri tuzish orqali jinoyatchilikni jilovlash mumkinligini isbotlamoqda.

O'zbekistonda ayollar tomonidan firibgarlik sodir etilishiga turtki bo'layotgan asosiy determinantlar ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bog'liq. "Muhtojlik" motivi, ya'ni kam ta'minlanganlik, ishsizlik va yolg'iz ona sifatida oilani boqish zarurati ayollarni iste'molchilik firibgarligiga undaydigan asosiy omildir. Ma'naviy-axloqiy omillar sifatida esa "oilaviy tamagirlik", ya'ni nufuzli hayotga intilish yoki jinoiy mablag'larni farzandlar ehtiyojiga sarflash kabi qarashlar ko'rsatiladi.¹⁷ Shuningdek, oilaviy nizolar va psixologik travmalar ayollarda "ekstremal qarorlar" qabul qilishga moyillikni kuchaytiradi.¹⁸

Amaldagi qonunchilikda firibgarlikni jilovlash bo'yicha muayyan yutuqlar mavjud. Masalan, Jinoyat kodeksining 168-moddasi 5-qismiga ko'ra, yetkazilgan moddiy zararining o'rni to'liq qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar qo'llanilmaydi.¹⁹ Bu norma ayol jinoyatchilarning rehabilitatsiyasi uchun muhim imkoniyatdir. Biroq, profilaktika tizimida ayrim bo'shliqlar ham mavjud. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odil sudlov tizimidagi 497 ta statistik shakldan faqat 7 tasida gender kesimidagi ma'lumotlar mavjud, bu esa ayollar jinoyatchiligini tizimli tahlil qilish va manzilli choralar ko'rishga to'sqinlik qilmoqda. 2023-yildagi O'RQ-829-sonli Qonun bilan xotin-qizlar himoyasi kuchaytirilgan bo'lsa-da, iqtisodiy jinoyatlarning «latent» (yashirin) tabiatini ochishda hali ham institutsional qiyinchiliklar saqlanib qolmoqda.²⁰

O'zbekistonda ayollar firibgarligining oldini olish uchun faqat jazo choralarini emas, balki «Ayollar daftari» orqali iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va huquqiy xabardorlikni oshirish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

XULOSA


Ayollar tomonidan sodir etiladigan firibgarlik jinoyatchiligi bo'yicha o'tkazilgan

17 Omonova N. Ayollar tomonidan sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatining sabablari va unga imkon bergan sharoitlar // CAJAR. – 2026. – Vol. 4, № 2. – B. 153-159.

18 Hilliard T., Neidermeyer P.E. The gendering of fraud: an international investigation // Journal of Financial Crime. – 2018. – Vol. 25(1). – P. 13-16.

19 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: 22.09.1994 yildagi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son.

20 Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.04.2023 yildagi O'RQ-829-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.



qiyosiy kriminologik tahlillar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

- Ayollar firibgarligi erkaklarnikidan farqli ravishda jismoniy kuchga emas, balki aqliy faollik, hiyla-nayrang va hissiyotlarga ta'sir o'tkazish orqali ishonchni suiiste'mol qilishga asoslangan intellektual xususiyatga ega.
- Ayol firibgarlar uchun "muhtojlik" (oil va farzandlar ehtiyoji) hamda "tamagirlik" (nufuzli hayotga intilish) motivlari yetakchi hisoblanadi.
- Firibgarlik sodir etuvchi ayollarning o'rtacha yoshi 30-32 yoshni tashkil etib, ularning 67,7 foizi farzandli ayollardir.
- Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollar nafaqat jinoiy sxemalarning passiv ijrochilari, balki tobora ko'proq tashkilotchi va faol sherik (co-conspirators) sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston amaliyotida ayollar jinoyatchiligining oldini olishda quyidagi to'siqlar mavjudligi aniqlandi:


- Odil sudlov tizimidagi 497 ta statistik shakldan faqat 7 tasida gender kesimidagi ma'lumotlar mavjudligi muammoning haqiqiy ko'lamini ko'rishga xalaqit bermoqda.
- Sud jarayonlari va yangi qonun hujjatlarining (masalan, O'RQ-829) amaldagi samaradorligini monitoring qilish tizimi hali to'liq shakllanmagan.
- Ayollar uchun bepul yuridik yordam olish va o'z huquqlarini sudlarda himoya qilishda keraksiz "isbotlash yuki" va moliyaviy xarajatlar mavjud.

Amaliy va qonunchilikka oid takliflarim:

1-Taklif. "Genderga sezgir tergov va profilaktika" tizimini joriy etish. Filippin va Buyuk Britaniya tajribasidan kelib chiqib, ayol firibgarlarning o'ziga xos determinantlarini hisobga oluvchi tergov metodikalarini ishlab chiqish zarur. Bu tergovchilarga an'anaviy gender stereotiplaridan voz kechishga va yashirin (latent) iqtisodiy jinoyatlarni aniqroq ochishga yordam beradi.

2-Taklif. Jinoyat va Jinoyat-protsessual qonunchiligiga "Raqamli monitoring" tizimini kiritish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-martdagi Farmonidagi "SOS" tizimi va "O'smir-signal" moduli kabi raqamli vositalarni firibgarlik xavfi mavjud bo'lgan "Ayollar daftari"dagi shaxslar uchun ham kengaytirish taklif etiladi. Bu iqtisodiy tanglikka tushib qolgan ayollarning firibgarlik sxemalariga jalb qilinishini erta bosqichda aniqlash va preventiv yordam ko'rsatish imkonini beradi.

3-Taklif. Statistika hisoboti tizimini isloh qilish. Oliy sud va Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning barcha statistik hisobot shakllariga majburiy "gender" mezo-




ni kiritish. Hozirgi kunda mavjud bo'lgan 7 ta shaklni ko'paytirish orqali ayollar jinoyatchiligi bo'yicha manzilli va ilmiy asoslangan profilaktika dasturlarini tuzish imkoniyati yaratiladi.

4-Taklif. Ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning manzilliligini oshirish. "Ayollar daftari" tizimini modernizatsiya qilib, firibgarlik qurboni bo'lgan yoki ushbu jinoyatga moyilligi bor ayollar uchun "Huquqiy-iqtisodiy inkubatorlar" tashkil etish. Moddiy qiyinchilik ("muhtojlik" motivi) ayollarni firibgarlikka undovchi asosiy omil bo'lgani sababli, ularga qonuniy daromad manbai yaratib berish jinoyatchilikni kamaytirishning eng samarali yo'lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ofurova D. M. Ayollar tomonidan sodir etilgan iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar // Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2025. – Vol. 1. – B. 1040-1052.
2. Gottschalk P., Glasø L. Gender in White-Collar Crime: An Empirical Study of Pink-Collar Criminals // International Letters of Social and Humanistic Sciences. – 2013. – Vol. 4. – B. 22-34.
3. Usmonov D. Q. Xalqaro huquqda ayollar huquqlari // Innovative Development in Educational Activities. – 2024. – Vol. 3. – Issue 7. – B. 28-34.
4. Jami jinoyat sodir etgan shaxslardan ayollarning ulushi (2010–2024 yy.): Statistik ma'lumotlar to'plami // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. – 2024.
5. Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.04.2023 yildagi O'RQ-829-son // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.04.2023-y., 03/23/829/0208-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
7. Tauveron L. A Female Lens on Financial Crime Offences // Economic Crime Insight. – 2025. – June 6.
8. Hilliard T., Neidermeyer P. E. The gendering of fraud: an international inves-



tigation // Journal of Financial Crime. – 2018. – Vol. 25(1). – P. 13-16.

9. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: 22.09.1994 yildagi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son.

10. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi: 22.09.1994 yildagi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.11.2024-y., 03/24/1003/0943-son.

11. O‘rinova D. A. Ayollarda jinoyatga moyillikning psixologik sabablari // Nauka, innovatsii i obrazovanie: klyuchevye vektory obshchestvennogo progressa. – 2024. – № 1. – B. 117-119.

12. Saydivaliyeva X. X. “Ayollar huquqlari” va “gender tengligi” tushunchalari: o‘zaro munosabat va farqlar // Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila. – 2024. – № 4 (13). – B. 29-33.

13. Omonova N. R. Ayollar tomonidan sodir etilayotgan firibgarlik jinoyatining sabablari va unga imkon bergan sharoitlar // Central Asian Journal of Academic Research. – 2026. – Vol. 4. – № 2. – B. 153-159.

14. Saparbaeva S. R. Q. Comparative analysis of the motives of female and male criminality // International Journal of Law and Criminology. – 2024. – Vol. 4. – Issue 09. – B. 13-16.

15. Salaev A. Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish amaliyoti monitoringi // United Nations Development Programme (UNDP) Uzbekistan Blog. – 2024. – 8 October.


16. Xotin-qizlar va bolalar huquqlari... ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi natijasida... O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining ma’muriy huquqbuzarlik hamda jinoyat ishlari bo‘yicha ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qўshimchalar kiritish tўғrисида: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 20.11.2023 yildagi 30-son // [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/docs/6683558>.

17. Convention on the Political Rights of Women (Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida). – New York: United Nations, 1952. (Ratified by Uzbekistan: 30.08.1997).


18. Toshniyozova G. Ayollar yoki erkaklar - firibgarlar kimni ko‘proq aldashadi? // Kun.uz. – 2025. – 1 sentabr.

19. G‘ofurova D. Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminalistik tavsifi // Scientific Progress. – 2021. – № 2. – B. 1062-1068.

20. Xotin-qizlar va bolalar huquqlari himoyasini kuchaytirish... bo‘yicha



қўшимча chora-tadbirlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.03.2026 yildagi PF-son // [Elektron resurs]. URL: norma.uz.



TARIX TA'LIMIDA PREZENTIZMGA QARSHI TARIXIY OBYEKTIVLIKNI SHAKLLANTIRISH: SIN SHI XUANDI SIMULYATSIYASI MISOLIDA TAHLILIIY KEYS-STADI

Pardayev Muxriddin Xusniddinovich¹, Murodova Fotimabonu Avazbek qizi²

¹Xalqaro Nordik univesiteti katta o'qituvchisi, PhD

ORCID: <https://orcid.org/0009-0009-6350-4728>

E-mail: m.pardayev0808@nordicu.uz

²O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

E-mail: fotimabonumurodova@gmail.com


Annotatsiya

Ushbu maqolada tarix ta'limida prezentizm, ya'ni zamonaviy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarni o'tmish voqealari hamda tarixiy shaxslarga bevosita tatbiq etish muammosining nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy asosini hozirgi-markazlilik (present-centeredness) va hozirgi-fikrlilik (present-mindedness) tushunchalari, prezentizm haqidagi qarashlar hamda tarixiy hamdardlik modeli tashkil etadi. Maqolada tarixiy shaxsni tushunish va uni oqlash o'rtasidagi chegarani talabalarga qanday tushuntirish mumkinligi masalasi muhokama qilinadi.

Mazkur muammoni yoritish maqsadida qadimgi Xitoy hukmdori Sin Shi Xuan-di (er. avv. 259–210) faoliyati misolida sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan ikki bosqichli dars modeli taklif etiladi. Birinchi bosqichda sakkizta vaziyatli qaror dilemmasidan iborat simulyatsion keys-stadi qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda Sokratik seminar formatidagi tarixiy munozara qo'llaniladi. Pilot tadqiqot Toshkent shahridagi Nordik Xalqaro Universiteti hamda Toshkent Xalqaro Kimyo Universitetining to'rtta akademik guruhida tahsil olayotgan jami 60 nafar bakalavriat talabalari ishtirokida amalga oshirilgan. Tadqiqotda aralash metodli dizayn-asoslangan tadqiqot (DBR) yondashuvi qo'llanilib, darsdan oldingi va keyingi ochiq savolli testlar, yozma refleksiyalar hamda pedagogik kuzatuv ma'lumotlari tahlil qilindi.

Natijalar talabalarda sodda axloqiy baholashdan tarixiy kontekstni hisobga oluvchi tahliliy yondashuvga o'zgarganligini ko'rsatadi. Refleksiyalarda "tushunaman, biroq oqlamayman" mazmunidagi fikrlarning paydo bo'lishi tarixiy hamdardlikning oqlash emas, balki tushunishga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ayrim talabalarda hozirgi zamon mezonlari orqali o'tmishni baholashga moyillik, ya'ni prezentistik yondashuv saqlanib qolayotganligi kuzatiladi. Bundan tashqari, qo'llanilgan dars dizayni ham konseptual prezentizm xavfini to'liq bartaraf etmaganini e'tirof etish lozim.

Tadqiqot asosiy cheklovlari sifatida guruhning kichikligi, kuzatuv davrining qisqaligi, nazorat guruhining mavjud emasligi hamda o'qituvchi-tadqiqotchi subyektivligining ehtimoliy ta'siri qayd etish kerak. Shu sababli, taqdim etilgan natijalar yakuniy xulosa sifatida emas, balki keyingi keng ko'lamli tadqiqotlar uchun istiqbolli metod-



ologik model sifatida talqin qilinadi.

Kalit soʻzlar: prezentizm, tarixiy hamdardlik, tarix taʼlimi, simulyatsion taʼlim, Sin Shi Xuandi, sunʼiy intellekt, tarixiy fikrlash, post-sovet taʼlim makoni, oliy taʼlim, dizayn-asoslangan tadqiqot, tianming, legalizm.

FORMING HISTORICAL OBJECTIVITY AGAINST PRESENTISM IN HISTORY EDUCATION: AN ANALYTICAL CASE STUDY BASED ON THE QIN SHI HUANG SIMULATION

Abstract


This article analyzes the theoretical and practical aspects of presentism in history education, specifically focusing on the problematic application of contemporary values and moral standards to past events and historical figures. The theoretical framework of the study is constructed upon the concepts of present-centeredness and present-mindedness, existing perspectives on presentism, and the model of historical empathy. The paper addresses a critical pedagogical challenge: how to effectively demonstrate to students the conceptual boundary between understanding a historical figure and justifying their actions.

To address this issue, a two-stage instructional model developed with the assistance of artificial intelligence was implemented, using the reign of the ancient Chinese emperor Qin Shi Huang (259-210 BCE) as a case study. The first stage utilizes a simulation case study consisting of eight situational decision dilemmas, followed by a second-stage historical debate conducted in a Socratic seminar format. A pilot study was conducted with 60 undergraduate students across four academic groups at Nordic International University and Tashkent International University of Chemistry in Tashkent. Employing a mixed-methods design-based research (DBR) approach, data from pre- and post-lesson open-ended tests, written reflections, and pedagogical observations were qualitatively and quantitatively analyzed.

The findings reveal a significant cognitive shift in students' approaches, moving from simplistic moral judgment to analytical evaluation that accounts for historical context. The emergence of the perspective "I understand, but I do not justify" within student reflections confirms that historical empathy serves comprehension rather than exoneration. Concurrently, a lingering tendency to evaluate the past through modern-day criteria-indicating a persistent presentist bias-was observed among some students. Furthermore, it must be acknowledged that the implemented instructional design did not completely eliminate the risk of conceptual presentism.

The primary limitations of this study include the small sample size, the brief observation period, the absence of a control group, and the potential influence of teacher-researcher subjectivity. Consequently, the presented results should not be viewed as definitive conclusions, but rather interpreted as a promising methodological model for future large-scale investigations.

Keywords: presentism, historical empathy, history education, simulation-based



learning, Qin Shi Huang, artificial intelligence, historical thinking, post-Soviet educational space, higher education, design-based research, tianming, legalism.

KIRISH


Auditoriyada bakalavriat darajasidagi tarixchi talabaga “Chingizxon haqida nima bilasiz?” deya savol berilsa, odatda javobni tahmin qilish qiyin bo‘lmaydi. “Chingizxon vahshiy va qonxo‘r bo‘lgan, O‘rta Osiyodagi ko‘plab shaharlarni vayron qilgan, minglab odamlarni qirib tashlagan”. Bu hukm faktologik darajada noto‘g‘ri emas. Mo‘g‘ullar bosqinining 1219-1221 yillardagi Markaziy Osiyo shahar-davlatlariga keltirgan vayronagarchiligi tarixiy manbalar bilan tasdiqlangan. Biroq, ushbu javob akademik tahlil mezonlari asosida ko‘rib chiqilganda, unda tarixiy tafakkurning muhim tarkibiy qismlari yetishmasligi namoyon bo‘ladi. Talaba hodisani tarixiy jarayon, siyosiy muhit yoki davrning harbiy-madaniy mantiqi bilan bog‘lash o‘rniga, asosan axloqiy hukm chiqarish bilan cheklanadi. Natijada tarixiy shaxs o‘z davrining murakkab siyosiy vakili sifatida emas, balki faqat “ayblanuvchi” obrazida talqin qilinadi, tarixiy davrning o‘ziga xos sharoitlari esa zamonaviy qadriyatlar bilan qarama-qarshi qo‘yiladi. Shu ma’noda, bunday yondashuv tarix ta’limidagi prezentizmning tipik namunasini ifodalaydi. Ya’ni, bunda zamonaviy axloqiy me’yor va qarashlar o‘tmishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etilib, tarixiy tahlil o‘rnini soddalashtirilgan axloqiy yorliqlash egallaydi ¹.

Ushbu maqolada keltirilgan fikrlar Chingizxonning harakatlarini oqlashga qaratilmagan. Buxoro va Samarqand jamoaviy fojiasining haqiqiy tabiatini va shahar aholisining yo‘qotishlari tarixiy haqiqat sifatida to‘liq qabul etiladi. Lekin pedagogik jihatidan bir muammo yuzaga keladi – agar talaba tarixiy shaxsga faqat zamonaviy axloq nuqtai nazaridan qarasa, u ushbu tarixiy shaxsning qarorlarini yuzaga kelgan o‘sha davrning siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy sharoitini anglashga qodir bo‘lmaydi. Holbuki, tarixiy tahlil aslida, aynan shu qaror vujudga kelishi omillarini, o‘sha muhitni qayta tiklash bilan boshlanadi. Tarixiy shahsni tushunish – bu oqlash emas ². Aksincha, tarixiy tushunish talabalarda o‘tmishni soddalashtirilgan hukmlar orqali emas, balki uning murakkabligi va o‘z davri sharoitlari orqali anglashlariga xizmat qiladi. Ushbu farq maqolada taklif etilayotgan pedagogik yondashuvning asosiy g‘oyasini tashkil etadi.

Ushbu muammoni o‘rganish maqsadida Toshkent shahridagi Xalqaro Nordik Universiteti hamda Toshkent Xalqaro Kimyo Universitetining auditoriyalaridagi darslar jarayonida prezentizm xodisasini Sin Shi Xuandi (er. avv. 259–210) misolida kuzatildi. Faktologik ma’lumotlardan keyin, talabalarning dastlabgi munosabati deyarli bir xilda bo‘lganligi kuzatildi. “U zolim bo‘lgan. U kutubxonalarni buzib, kitoblarni yoqtirgan, olimlarni tiriklay ko‘mgan”. Va bu hukm ham faktologik darajada yana to‘g‘ri. Eramizdan avvalgi 213-yilda kitoblarning yondirilishi va 212-yilda 460 olimni dafn qilish haqidagi faktlar qadimgi Xitoy yilnomasi Shiji manbasida qayd etilgan.

1 Hunt L. Against presentism: Perspectives on history // American Historical Association. Accessed April. – 2002. – T. 4. – C. 2002; Yorgun I. The trap of present-day: Presentism as an issue and its boundaries in historical methodology // Tarih İncelemeleri Dergisi. – 2024. – Vol. 39, No. 2. – P. 881–898.

2 Lee P., Ashby R. Progression in historical understanding among students ages 7–14 // Knowing, teaching, and learning history: National and international perspectives / Ed. by P. N. Stearns, P. Seixas, S. Wineburg. – New York : New York University Press, 2000. – P. 199–222.



Ammo ushbu qarashlar zamonaviy sinologik adabiyotda jiddiy manbashunoslik tanqidiga uchramoqda. Avvalo, Shiji manbasi Xan sulolasi davrida yashagan tarixchi Sima Sian tomonidan yuqoridagi voqealardan qariyb bir asr o'tgach yozilgan. Shu sababli mazkur asar nafaqat tarixiy ma'lumot manbai, balki Xan davri mafkuraviy qarashlarining mahsuli sifatida ham ko'rish mumkin. Ya'ni, Sin sulolasi tarixining asosiy manbalari uning siyosiy raqiblari va vorislari bo'lgan Xan davri mualliflari tomonidan yaratilganligi sababli, yangi sulola o'z hokimiyatining legitimligini asoslash maqsadida o'zidan avvalgi Sin boshqaruvini salbiyroq tasvirlashga moyil bo'lgan bo'lishi mumkin.

Shu bilan birga, talabalarda tarixiy tushunish darajasi kuzatilmasligini ta'diklash kerak. Talaba Sin Shi Xuandining 200 yildan ortiq davom etgan Kurashayotgan podshohliklar davridagi parchalanishni qanday to'xtatishni, yetti raqib qirollikni qanday birlashtirishni, yangi byurokратиyani qanday qurishni umuman ko'rmaydi, hisobga olmaydi. U faqat oxirgi drammatik voqealarni kitob yondirilishi va olimlarni ko'milishi hodisasini o'z vaqti doirasidan turib baholaydi.

Shu sababli quyidagi tadqiqot savollari paydo bo'ladi: talabalarni o'tmishni obyektiv o'rganishga qanday o'rgatish mumkin? Tushunish va oqlash o'rtasidagi farqni qanday yetkazish mumkin? Eng asosiysi – bu vazifani amalda bajarish mumkinmi?

Ushbu maqolada birinchidan, prezentizm bo'yicha so'nggi nazariy bilimlar tahlil qilindi. So'ngra ushbu nazariy asosda Sin Shi Xuandi bilan bog'liq SI yordamida ishlab chiqilgan ikki bosqichli dars dizaynini ishlab chiqildi. Bular:

- simulyatsiya bosqichi (vaziyatli qaror dilemmalari);
- Sokratik munozara bosqichi (munozara savollari).

Yakunda ushbu tadqiqot natijalari va pedagogik xulosalari muhokama qilingan.

METODOLOGIYA


Nazariy-metodologik asoslari

XX asr tarix metodologiyasida shakllangan "prezentizm" tushunchasi, mohiyatan, o'tmishdagi voqea va shaxslarning harakatlarini ular yashagan davr kontekstidan uzib, zamonaviy dunyoqarash nuqtai nazaridan "to'g'ri" yoki "noto'g'ri" deb baholashni anglatadi ³.

Lin Xant prezentizmning ikki qirrasini ajratib ko'rsatadi: birinchisi – o'tmishni prezentistik atamalar bilan talqin qilish (uslubiy-metodologik muammo), ikkinchisi – tarixiy tadqiqotlar kun tartibining bugungi kun manfaatlariga moslashib, uzoq o'tmishdan uzoqlashishi (tematik muammo) ⁴. Bu ikki jihat tarixchilik amaliyotida o'zaro bog'liq bo'lib, prezentizmni shunchaki xato emas, balki tarixiy bilimning shakllanish jarayo-

3 Fischer D. H. Historians' fallacies: Toward a logic of historical thought. – New York : Harper & Row, 1970. – 362 p.

4 Hunt L. Against presentism: Perspectives on history //American Historical Association. Accessed April. – 2002. – T. 4. – C. 2002.



niga ta'sir etuvchi tizimli hodisa sifatida tavsiflaydi ⁵.

Xantga ko'ra, o'tmishni bugungi kun nuqtai nazaridan talqin qilish tadqiqotchini o'zini axloqiy jihatdan ustun his qilishdek metodologik tuzoqqa yetaklaydi ⁶. Masalan, talabalar Sin Shi Xuandi yoki Chingizxon faoliyatini tahlil qilishda ularning davriga xos sharoit va qarorlar sabablarini o'rganish o'rniga, ularni zamonaviy axloqiy mezonlar bilan qoralashga moyil bo'ladilar. Natijada, tarixiy tahlil o'z mohiyatini yo'qotib, talabani bugungi kun axloqiy pozitsiyasini tasdiqlovchi vositaga aylanib qoladi.

Yoxan Xellerma esa prezentizmni biryoqlama salbiy hodisa deb emas, balki murakkab tizim sifatida tahlil qilib, uni "hozirgi-markazlilik" (present-centeredness) va "hozirgi-fikrlilik" (present-mindedness) tushunchalariga ajratadi ⁷:

Hozirgi-markazlilik: Tarixiy tadqiqotning muqarrar xususiyati bo'lib, har bir tadqiqotchi o'tmishga o'z davrining savollari va ilmiy muammolari orqali yondashadi. Zamonaviy nazariyalar va konseptual vositalardan foydalanish tarixiy bilimni yaratishning ajralmas qismidir.

Hozirgi-fikrlilik: Tadqiqotchi yoki talabani zamonaviy qadriyat va me'yorlarni o'tmishga tanqidsiz tatbiq etishi bo'lib, bu yondashuvda tarixiy shaxslarning o'z davriga xos dunyoqarashi e'tibordan chetda qoladi. Xellerma aynan shu holatni prezentizmning eng muammoli ko'rinishi deb hisoblaydi.

Ushbu tushunchalarni farqlash tarix ta'limi uchun muhim metodologik asosdir. "O'tmishga hozirgi kun nuqtai nazaridan umuman qaramaslik" amalda imkonsiz va nazariy jihatdan ziddiyatli vazifadir. Shu bois, asosiy maqsad prezentizmni butunlay yo'q qilish emas, balki uning shakllarini farqlash hamda boshqarishdir. Tarix ta'limining markaziy pedagogik maqsadi – talabani hozirgi-markazlilik va hozirgi-fikrlilik o'rtasidagi nozik chegarani anglashga o'rgatishdan iborat. Mazkur chegarani anglashgina tarixiy tahlilni axloqiy hukmlardan xoli qilish imkonini beradi.

Prezentizm tipologiyasi va tarixiy hamdardlik

Akademik adabiyotda prezentizm hodisasining bir nechta tasnifi mavjud bo'lib, ularni tizimlashtirish tadqiqot metodologiyasida aniqlikni ta'minlaydi. Xususan, Devid Armitaj prezentizmning besh turdan iborat tasnifini taklif etadi: teleologik, idealist, tahliliy perspektivli, omnipresent prezentizm ⁸.

Biroq, pedagogik amaliyot va ta'lim jarayonlari uchun tadqiqotchi Yorgun mazkur tipologiya yanada soddalashtirilgan va amaliyotga yo'naltirilgan uch tarkibiy qismini taklif etadi:


Axloqiy prezentizm: Zamonaviy davrga xos bo'lgan axloqiy me'yorlar va qadriyat

5 Walsham A. Introduction: Past and... presentism //Past and Present. – 2017. – T. 234. – №. 1. – P. 213–217.

6 Hunt L. Against presentism: Perspectives on history //American Historical Association. Accessed April. – 2002. – T. 4. – C. 2002.

7 Hellerma J. Claiming presentism: navigating vicious and virtuous forms of present-centered history // Rethinking History. – 2026. – P. 1–20. – DOI:10.1080/13642529.2026.2662068

8 Armitage D. In defence of presentism // History and human flourishing / Ed. by D. M. McMahon. – Oxford : Oxford University Press, 2023a. – P. 44–69.



o'ldiruvlarini o'tmishdagi tarixiy shaxslar yoki voqealarga nisbatan qo'llash.

Teleologik prezentizm: Tarixiy jarayonlarni go'yoki muqarrar ravishda bugungi kun voqeligiga olib kelishi kerak bo'lgan chiziqli zanjir sifatida talqin qilish.

Anaxronik prezentizm: Zamonaviy konseptual apparat, ilmiy va texnik atamalarini o'tmishdagi voqelik kontekstini hisobga olmay, noo'rin tatbiq etish ⁹.

Mazkur tipologiya pedagogik muhitda yuqori samaradorlikka ega. Chunki, u talabalar uchun tushunarli bo'lib, o'quv jarayonida murakkab tarixiy shaxslar (Sin Shi Xuandi va Chingizxon) faoliyatini tahlil qilishda bevosita amaliy vosita vazifasini o'taydi. Masalan, talaba tomonidan bildirilgan "U zolim hukmdor edi" degan subyektiv xulosa, birinchi navbatda, axloqiy prezentizmning yaqqol namunasidir. Bizning tadqiqotimiz aynan talabalarda uchraydigan ushbu uchta xatolikni bartaraf etishga qaratilgani sababli, unda amaliy vosita sifatida aynan Yorgunning uchlik tipologiyasi qabul qilindi.

Prezentizmga qarshi metodologik samarali tahliliy kategoriya – bu tarixiy hamdardlik. Mazkur tushunchani hissiy yaqinlik yoki oddiy hamdardlik emas, balki epistemik kompetensiya sifatida anglash lozim. Tarixiy hamdardlik – bu o'tmishdagi shaxslarning dunyoqarashi, his-tuyg'ulari, qabul qilgan qarorlari va xatti-harakatlarini ularning o'z davriga xos kontekstda tushunishga qaratilgan kognitiv-affektiv intellektual faoliyatdi ¹⁰. Mazkur jarayon tarixiy shaxslarni hissiy oqlashni emas, balki manbalarni tanqidiy tahlil qilish, tarixiy rekonstruksiya va ijtimoiy-madaniy muhitni intellektual anglashga asoslangan ilmiy instrumentni ifodalaydi.

"Hamdardlik – bu qo'llab-quvvatlash emas, tushunish demakdir" (*empathy as understanding, not endorsement*) ¹¹. Ushbu formula bizning maqolamizning markaziy axloqiy tamoyilini (tushunish oqlash emas) to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlaydi.

Prezentizmning foydali shakllari va anti-prezentizmning xavfi

Tarix ta'limi metodologiyasiga oid zamonaviy adabiyotlarda prezentizm borasida fundamental bir to'xtamga kelingan: sof istoriotsistik pozitsiya – ya'ni o'tmishni bugungi kun muammolari va tashvishlaridan butunlay ajratilgan holda o'rganishga urinish amaliy jihatdan imkonsiz, pedagogik jihatdan esa samarasizdir.


Devid Armitaj ta'kidlaganidek, tarixchining ijtimoiy mas'uliyati faqat o'tmish bilan cheklanmaydi, tadqiqotchi o'z tadqiqot chegaralarida ma'lum darajada prezentist bo'lishi tabiiy va zarur ¹². Shuningdek, tadqiqotchilar o'tmishni bugungi kundan mut-

⁹ Yorgun I. The trap of present-day: Presentism as an issue and its boundaries in historical methodology // Tarih İncelemeleri Dergisi. – 2024. – Vol. 39, No. 2. – P. 881–898.

¹⁰ Karn S. Designing historical empathy learning experiences: A pedagogical tool for history teachers // History Education Research Journal. – 2024. – Vol. 21, No. 1, Article 6. – DOI: 10.14324/HERJ.21.1.06 ; Barton K. C., Levstik L. S. Teaching history for the common good. – Mahwah, NJ : Lawrence Erlbaum Associates, 2004. – 384 p; Endacott J. L., Brooks S. Historical empathy: Perspectives and responding to the past // The Wiley international handbook of history teaching and learning / Ed. by S. A. Metzger, L. M. Harris. – Hoboken, NJ : Wiley, 2018. – P. 203–225.

¹¹ Lee P., Ashby R. Progression in historical understanding among students ages 7–14 // Knowing, teaching, and learning history: National and international perspectives / Ed. by P. N. Stearns, P. Seixas, S. Wineburg. – New York : New York University Press, 2000. – P. 199–222.

¹² Armitage D. In defence of presentism // History and human flourishing / Ed. by D. M. McMahon. – Oxford : Oxford University Press, 2023a. – P. 44–69.



laq uzib qo'yishga intiluvchi klassik istoriotsistik qarashni zamonaviy tarixshunoslik talablariga to'liq javob bermaydigan yondashuv sifatida baholaydilar¹³. Tadqiqotchilar fikricha, prezentizmning salbiy shakllaridan qochgan holda, uning istiqolli prezentizm ko'rinishini ta'lim tizimiga olib kirish maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv tarixiy tadqiqot yo'nalishlarini aynan zamonaviy jamiyatni qiynayotgan dolzarb muammolar va savollarga qaratishni nazarda tutadi. Shunday qilib, zamonaviy tarix didaktikasi o'tmishni o'tmish uchun emas, balki bugungi kunni chuqurroq anglash va kelajakni prognoz qilish uchun o'rganish kerakligini ilgari suradi. Bu esa dars jarayonida prezentizmning ijobiy imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni talab etadi.

Pedagogik izlanishlar talabalarga shunchaki "prezentizmdan qoching" deyish o'qituvchini xavfli yo'lga olib borishi mumkinligidan ogohlantiradi¹⁴. Agar tarixiy kontekstni tushuntirish bahonasi bilan o'tmishdagi global adolatsizliklar va inson huquqlari buzilishlari (masalan, qul savdosi, ayollar huquqlarining cheklanganligi, harbiy zo'ravonliklar) "o'sha davr uchun normal holat edi" qabilida tasvirlansa, ta'lim tizimida ushbu g'ayriinsoniy amaliyotlarni bilvosita tabiiy qabul qilish xavfi yuzaga keladi. Bu yerda metodologik muvozanat nuqtasi juda nozik va qat'iy. Bu yerda oltin qoida shundan iboratki: tarixiy kontekstualizatsiya – bu voqeaning sodir bo'lish sabablarini tushuntirish vositasi bo'lishi kerak, ammo uni axloqiy jihatdan oqlash elementiga aylanib qolishi kerak emas.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi tadqiqot savoli yuzaga keladi: tarix darslarida talabalarda prezentistik yondashuvni kamaytirish va tarixiy hamdardlik ko'nikmalarini qanday samarali rivojlantirish mumkin?

Sin Shi Xuandi tarixiy shaxsi keys sifatida


Birinchi Imperator Sin Shi Xuandi (er. avv. 259–210) tanlaganligini asosi u tarixiy adabiyotda quyidagi paradoks bilan tavsiflanadi: bir tomondan, u 200 yildan ortiq davom etgan parchalanish – Kurashayotgan podshohliklar davrini (*Chjango*, er. avv. 475–221) yakunlagan, yetti raqib podshohlikni birlashtirgan, yagona yozuv tizimini, og'irlik va o'lchov birliklarini, valyuta va yo'l tizimini joriy qilgan birinchi imperator bo'lsa, boshqa tomondan, uning shaxsi bilan ziyolilarni ayovsiz ta'qib qilgan tiran ramzi sifatida ko'riladi.

Sin Shi Xuandining kitob yondirishni buyurgani va ziyolilarni ta'qib qilib ular dan 460 olimlarni tiriklayin yerga ko'mishga buyurgani haqida voqealar asosan bir asr keyin Xan sulolasiga xizmatchisi tarixchi Sima Syanning "Tarixiy yozuvlar" (Shiji) asaridan keltiriladi.

Biroq, zamonaviy sinologik tadqiqotlarda ushbu an'anaviy qarash jiddiy ravishda qayta ko'rib chiqilmoqda. Jumladan, kitoblarni yoqish hodisasida saroy arxivi va imperator kutubxonasidagi nusxalar saqlanib qolgan, ya'ni, taqiq asosan xususiy egalik-

13 Miles J., Gibson L. Rethinking presentism in history education // *Theory & Research in Social Education*. – 2022. – Vol. 50, No. 4. – P. 509–529.

14 Barton K. C., Levstik L. S. Teaching history for the common good. – Mahwah, NJ : Lawrence Erlbaum Associates, 2004. – 384 p; Martell C. C., Stevens K. Y. Teaching history for justice: Centering activism in students' study of the past. – New York : Teachers College Press, 2021. – 192 p.



da bo'lgan kitoblarga qarshi qaratilgan ¹⁵. Ikkinchi tomondan, Naylan kutubxonaning yo'qolishining asl sababi ko'proq Sin saroyining eramizdan avvalgi 206-yil Syan Yu tomonidan yoqib yuborilishi bilan bog'liqligiga urg'u beradi. Agar imperator kutubxonasining rasmiy nusxalari saroyda saqlangan bo'lsa va keyinchalik Syan Yu tomonidan uyushtirilgan yong'inda yonib ketgan bo'lsa, unda matnlarning yo'qolishiga konfutsiychilar ayblaganidek Sin Shi Xuandi emas, balki boshqa bir odam – Syan Yu javobgar bo'lib, aybdorlik yorlig'i boshqa shahsga yopishtirilgan bo'lib chiqadi.

Shuningdek, manbalarda keltirilgan “olim” (*ru*) atamasi eramizdan avvalgi III asrda hozirgi ma'noda ishlatilmaganligini va dafn qilingan 460 kishining ko'pchiligi *fangshi* (barhayotlik eliksirini izlagan alkimyogarlari va sehrgarlar) bo'lganligini ta'kidlaydi ¹⁶.

Bundan tashqari, Sin davlat siyosatini Qadimgi Xitoyning boshqa Kurashayotgan podshohliklar siyosatlari bilan solishtirilganida, Sin davlatining boshqalaridan ajrab turuvchi favqulotda “yovuz”ligi haqidagi talqinlar ham rad etiladi ¹⁷. O'sha davrda, Kurashayotgan podshohliklarning siyosiy mantig'i ichida, ommaviy harbiy safarbarlik, yuqori soliq tizimi hamda mafkuraviy nazorat favqulodda holat emas, balki keng tarqalgan boshqaruv amaliyoti bo'lgani ko'rinadi. Bunday siyosiy mexanizmlar faqat Sin davlatigagina xos bo'lmay, boshqa podshohliklar tomonidan ham qo'llanganligi ko'rinadi ¹⁸. Bu hech qanday tarzda zo'ravonlikni oqlamaydi. Aksincha u Sin Shi Xuandining faoliyatini favqulotda yozvuzlik timsoli sifatida emas, balki o'sha davr siyosiy maydonida muvaffaqiyatli, ammo repressiv siyosat siyosat yuritganligini tushuntiradi. Aynan shu metodologik farq tarix ta'limidagi pedagogik yondashuvning markaziy nuqtasini tashkil etadi.

Ushbu manbashunoslik ma'lumotlari talabaga albatta yetkazilishi kerak: bu yerda pedagogik vazifa haqiqiy Sin Shi Xuandi qanday bo'lganini aniqlash emas, balki tarixiy hikoyaning manba bilan munosabatini anglashdir.


Endi muhim pedagogik savol: nima uchun aynan Sin Shi Xuandi? Va nima uchun Chingizxon emas? Tahliliy jihatdan, ikkala tarixiy shaxs ham O'zbekiston talabasi uchun parallel pedagogik vazifani bajaradi. Ammo bitta hal qiluvchi farq mavjud. Chingizxon tomonidan Markaziy Osiyo jumladan, hozirgi O'zbekiston hududlaridagi shaharlarning vayron qilinganligi haqidagi tarixiy xotira mavjudligi va tarix fanlarida oldindan o'qitilib kelinganligi sababli, talabaga Chingizxonga faoliyatini “kontekstual tushunish” asosida tahlil qilishni taklif etish hissiy va ahloqiy jihatdan murakkab va bahslidir. Sin Shi Xuandi figurasi esa, aksincha, talabaning hissiy bosimi ostidan holi bo'lgan tarixiy shahs bo'lib, tarixiy hodisalarni nazariy tahlil qilish, manbalarni qiyo-

15 Nylan M. The five “Confucian” classics. – New Haven : Yale University Press, 2001. – 416 p.

16 Nylan M. The five “Confucian” classics. – New Haven : Yale University Press, 2001. – 416 p; Lewis M. E. The early Chinese empires: Qin and Han. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 2007. – 336 p; Pines Y. Envisioning eternal empire: Chinese political thought of the Warring States era. – Honolulu : University of Hawaii Press, 2009. – 328 p; Pines Y. The everlasting empire: The political culture of ancient China and its imperial legacy. – Princeton : Princeton University Press, 2012. – 216 p.

17 Lewis M. E. The early Chinese empires: Qin and Han. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 2007. – 336 p.

18 Lewis M. E. The early Chinese empires: Qin and Han. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 2007. – 336 p.



siy o'rganish hamda prezentistik hukmlardan qochish masalasida mos tanlov sanaladi.

Mazkur yondashuvning pedagogik ahamiyati shundaki, talaba keyinchalik ushbu metodologik ko'nikmalarni boshqa tarixiy shaxslarga nisbatan ham qo'llash imkoniga ega bo'ladi. Demak, bu yerda asosiy maqsad Sin Shi Xuandining shaxsiyatini o'rganishning o'zi emas, balki tarixiy tahlil metodologiyasini shakllantirishdir. Sin Shi Xuandi esa ushbu metodologik mashq uchun nisbatan "xavfsiz" va hissiy jihatdan neytral pedagogik model vazifasini bajaradi.

Darsning tuzilmasi va metodologiyasi

Dars ikki bosqichli tuzilmaga ega:

birinchi bosqich – vaziyatli qaror dilemmalari bilan simulyatsiya. Bu yerda talaba Sin Shi Xuandi rolida turib qaror qabul qiladi;

ikkinchi bosqich – tarixiy tahlilga yo'naltirilgan savollar bilan Sokratik munozara. Bu bosqichda talaba simulyatsiya ichidan chiqib, voqeani tarixshunoslik nuqtai nazaridan ko'ra boshlaydi.

Dars tuzilmasi: jami 160 daqiqa. Birinchi 80 daqiqa tayyorgarlik va konseptual kirish bosqichini tashkil etadi: vizual uch qismli tasvir (15 daqiqa), falsafiy infografika (15 daqiqa), birlamchi manba bilan ishlash (15 daqiqa) hamda yo'naltiruvchi muhokama (35 daqiqa). Bu bosqich talabaning tarixiy kontekstni tizimli idrok etishini ta'minlaydi.


Ikkinchi 80 daqiqa amaliy va refleksiv bosqich bo'lib, Think-Pair-Share asosidagi muammoli savol (10 daqiqa), simulyatsiya faoliyati (50 daqiqa), Sokratik munozara (20 daqiqa) va yozma refleksiya (20 daqiqa)dan iborat. Ushbu bosqichda talaba tarixiy rolga kirish orqali qaror qabul qiladi, so'ng undan chiqib, voqeani tarixshunoslik va axloqiy refleksiya asosida tahlil qiladi.

Vizual illyustratsiya va infografika

Dars uch qismli vizual kompozitsiya bilan boshlanadi: birinchi panel – Kurashayotgan podshohlarning xaritasini va yetti qirollikning bayroqlarini ko'rsatadi; ikkinchi panel – Sin qo'shini birlashish jarayonida; uchinchi panel – birlashgan imperiyaning Buyuk Devor, yagona valyuta va terrakota armiya bilan ramziy tasviri. Kompozitsiya talabaning ongini oldindan faktologik ma'lumot bilan to'ldirmaydi, balki davrga xos vizual tasavvurni bosqichma-bosqich hosil qiladi.

Falsafiy maktablar infografikasi

Ikkinchi qism – uchta xitoy falsafiy maktabining qiyosiy infografikasi bo'lib bu yerda eng nozik pedagogik vazifa ushbu murakkab tushunchalarni (xitoycha *ren* – insoniylik/xayrxohlik; *dao* – yo'l/tabiyy tartib; *wu wei* – kuch ishlatmasdan, tabiiy oqim bilan harakat; *fa* – qonun/davlat hokimiyati) o'zbek talabasi uchun tushunarli qilishdan iborat. Buning uchun har bir tushuncha uchun (a) qisqa o'zbekcha tushuntirish, (b) o'zbek madaniy hayotidan analog metafora (masalan, *ren* uchun mahallaning



o‘zaro yordami; *wu wei* uchun “Suv kabi oqish” metaforasi), (c) vizual tasvir va (d) birlamchi manbadan qisqa iqtibos keltirish bilan hal qilindi.

Birlamchi manba iqtiboslari tarjimalari:

Konfutsiylik: *Lunyu* 12.11 – “Hukmdor hukmdor bo‘lsin, vazir vazir bo‘lsin, ota ota bo‘lsin, o‘g‘il o‘g‘il bo‘lsin” (). Bu – *ren* va *li* ning ijtimoiy tartib tushunchasidagi roli.

Daoizm: *Daodejing* 17 – “Eng yaxshi hukmdor – uning mavjudligi sezilmaydigani. Keyingisi – sevilgan va maqtalgani. Keyingisi – qo‘rqilgani. Eng yomoni – nafratlanilgani.” Bu – *wu wei* va daoistik siyosiy ideal.

Legalism: *Hanfeizi*, “Wu Du” (Besh xil zararkunanda) bobidan – “Yangi davrning hukmdori qadimgi yo‘llar bilan boshqarmaydi” (,). Bu – *fa* va tarixiy o‘zgaruvchanlik tushunchasi.

Birlamchi manba bilan tanishuv

Uchinchi qism (15 daqiqa) – talaba *Shiji*, 6-bob (*Qin Shi Huang benji*) dan kitoblarni yoqish voqeasi haqidagi tarjima qilingan parchani o‘qiydi¹⁹. So‘ng unga manbashunoslikka oid savollar beriladi: muallif kim, matn qachon yozilgan (voqeadan qancha vaqt o‘tib), kimlar uchun yozilgan, ehtimoliy mafkuraviy yoki siyosiy og‘ishlar nimalardan iborat, hamda qaysi tafsilotlar boshqa manbalar bilan tasdiqlanmaydi.

Bu bosqich tarix ta’limining asosiy metodologik tamoyilini amaliyotga tatbiq etadi: tarixni o‘rganish – bu avvalo manbani tahlil qilishdir. Ushbu tamoyilsiz har qanday “tarixiy simulyatsiya” oddiy o‘yin darajasida qoladi va akademik tarix ta’limi vazifasini bajara olmaydi.

Muammoli savol va Think-Pair-Share bosqichi


To‘rtinchi bosqichda talabaga ataylab provokatsion savol beriladi: “Agar siz Sin Shi Xuandi o‘rnida bo‘lganingizda, parchalanib ketgan yetti podshohlikni qanday birlashtirgan bo‘lardingiz?” Javoblar avval individual fikrlash (2 daqiqa), so‘ng juftlikda muhokama (3 daqiqa), keyin esa umumiy taqdimot asosida shakllantiriladi.

Bu bosqich talabalardagi yashirin prezentistik yondashuvlarni yuzaga chiqaradi. Ko‘pincha javoblar zamonaviy siyosiy institutlar, zamonaviy diplomatik usullar (muzokara orqali birlashtirish) yoki zamonaviy huquqiy-axloqiy me’yorlar (fuqarolarga nisbatan zo‘ravonliksiz siyosat) asosida shakllanadi. Bu holat o‘qituvchiga talabalar tarixiy voqealarni qaysi zamonaviy qarashlar orqali talqin qilayotganini ko‘rsatadi va keyingi darslarda shu tasavvurlarni tarixiy kontekst asosida aniqlashtirishga yordam beradi.

Birinchi bosqich: vaziyatli qaror simulyatsiyasi

Beshinchi qism va darsning birinchi asosiy bosqichi vaziyatli qaror qabul qilish

19 Birlamchi manbalar quyidagi elektorn havoladan olindi: <https://warringstates.day/library/shiji/06-qin-shi-huang-ben-ji>



simulyatsiyasidan iborat. Talabalar 4-5 kishilik guruhlariga bo'linib, Sin saroyidagi maslahatchilar rolini bajaradilar. Simulyatsion ta'limning nazariy asoslari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Jumladan, simulyatsion darslar talabalarga tarixiy voqealarni oddiy kuzatuvchi sifatida emas, balki tarixiy shaxslarning o'rniga kirib his qilish imkonini berishi qayd etilgan ²⁰. Bunday yondashuv talabaga tarixiy qarorlar qanday murakkab sharoitlarda qabul qilinganini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Simulyatsiyaga ko'ra, tarixiy shaxslarning tanlovlari cheksiz bo'lmagan, balki davrning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari bilan cheklangan. Simulyatsiyaning maqsadi talabalarga tarixiy qarorlar mavjud imkoniyatlar va cheklovlar doirasida qabul qilinganini amaliy ravishda anglatishdir.

Shu maqsadda har bir guruh har bir raund boshida uch turdagi resurs tokenlarini oladi. Tokenlar qaror qabul qilish imkoniyatlari va cheklovlarini modellashtirishga xizmat qiladi.

Tokenlar jadvali

Token	Xitoycha	Mazmuni
Byudjet	<i>cang</i>	Moliyaviy va ta'minot zaxirasi
Legitimlik	<i>tianming</i>	Osmon farmoni; xalq va elita rozilik tokeni
Nazorat	<i>wei</i>	Harbiy va majburiy bosim tokeni

Har bir qaror varianti ma'lum miqdordagi resurs tokenlarini talab qiladi. Agar guruhda yetarli token bo'lmasa, mazkur variantni tanlash imkoni bo'lmaydi yoki qo'shimcha cheklovlar qo'llanadi. Bu mexanizm talabalarga tarixiy shaxslar va siyosiy aktorlarning qarorlari mavjud resurslar hamda davr sharoitlari bilan cheklanganini amaliy ravishda anglash imkonini beradi.

Simulyatsiya davomida davlat holati 0 dan 10 gacha bo'lgan shkalada baholanadigan to'rtta asosiy ko'rsatkich orqali kuzatib boriladi:


Ko'rsatkichlar jadvali

Ko'rsatkich	Xitoycha atama	Boshlang'ich darajasi
Barqarorlik	<i>zhi</i> (tartib)	5
Legitimlik	<i>tianming</i> (Osmon farmoni)	5
Byudjet	<i>cang</i> (xazina)	5
Isyon xavfi	<i>minbian</i> (xalq harakati)	5

Sakkiz vaziyatli qaror dilemmasi. Simulyatsiya sakkizta vaziyatli qaror dilemmasi asosida qurilgan. Har bir dilemmada ikki yoki uchta muqobil variant taklif etiladi. Variantlar resurs talabi va ularning davlat ko'rsatkichlariga ta'siri bilan farqlanadi (to'liq ma'lumot 1-ilovada keltirilgan).

Dilemmalar va qaror variantlari Sin imperiyasining boshqaruv amaliyoti hamda

20 DiCamillo L., Gradwell J. M. Using simulations to teach middle grades U.S. history in an age of accountability // RMLE Online. – 2012. – Vol. 35, No. 7. – P. 1–16. – DOI: 10.1080/19404476.2012.11462090.



zamonaviy sinologik tadqiqotlarda muhokama qilingan tarixiy ma'lumotlarga tayan-gan holda ishlab chiqilgan ²¹. Shu tariqa talabalar tarixiy qarorlarni tayyor natija sifati-da emas, balki muqobil imkoniyatlar va ularning ehtimoliy oqibatlari nuqtai nazaridan tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Simulyatsiyada "davlatning qulashi" holati muvaffaqiyatsizlik emas, balki tarixiy rivojlanishning muqobil natijalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Agar barqarorlik va legitimlik ko'rsatkichlari keskin pasayib, isyon xavfi yuqori darajaga yetsa, ssenariy imperiyaning inqirozi va parchalanishi bosqichiga o'tadi. Bunday vaziyatda talabalar qabul qilgan qarorlarning uzoq muddatli oqibatlarini kuzatish imkoniga ega bo'ladilar.

Mazkur mexanizmning asosiy pedagogik ahamiyati talabalarning o'z qarorlari bi-lan tarixiy shaxslar duch kelgan muammolar o'rtasidagi bog'liqlikni anglab yetishi-dadir. Talaba ayrim tanlovlar tarixda ham shunga o'xshash oqibatlarga olib kelganini ko'rganida, tarixiy qarorlarning murakkabligi va cheklangan sharoitlarda qabul qilin-ganini chuqurroq tushuna boshlaydi. Aynan shu nuqtada tarixiy hamdardlik ²² shak-llanadi. Talaba tarixiy shaxsning qarorini tushunishga harakat qiladi ²³, biroq bu uni oqlash yoki qo'llab-quvvatlashni anglatmaydi. Boshqacha aytganda, darsning maqsadi tarixiy shaxsning harakatlarini ma'qullash emas ²⁴, balki ularni o'z davrining sharoit-lari va imkoniyatlari doirasida anglashga erishishdir.

Ikkinchi bosqich: Sokratik savol-javob asosidagi tarixiy tahlil

Oltinchi qism – Sokratik munozara bosqichi. Bu bosqich simulyatsiyadan keyin mantiqiy davom sifatida tashkil etiladi, chunki talaba avval resurs cheklovlari, qaror qiymati va ularning ko'p omilli oqibatlarini amaliy tajribada boshdan kechiradi. Ana shundan so'nggina u mavhum tarixiy savollarga chuqur va asosli javob bera oladi.

Munozara uchta tarixiy ramka asosida shakllantirilgan savollar atrofida olib boriladi (har biri 5-7 daqiqa, jami 20 daqiqa).


Sokratik bosqichda o'qituvchining asosiy vazifasi javoblarni baholash emas, balki ularni chuqurlashtirishdir. Shu sababli "to'g'ri javob" e'lon qilinmaydi, talabaning fikri aniq tarixiy dalillar bilan bog'lanadi. Agar javob axloqiy yorliq yoki umumiy hukm shaklida ifodalansa, u "Bu fikr qaysi tarixiy dalil yoki manbaga tayanadi?" kabi savol-lar orqali qayta tarixiy tahlilga yo'naltiriladi (2-ilova).

21 Lewis M. E. The early Chinese empires: Qin and Han. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 2007. – 336 p; Pines Y. The everlasting empire: The political culture of ancient China and its imperial legacy. – Princeton : Princ-eton University Press, 2012. – 216 p; Sanft C. Communication and cooperation in early imperial China: Publicizing the Qin dynasty. – Albany : SUNY Press, 2014. – 224 p.

22 Karn S. Designing historical empathy learning experiences: A pedagogical tool for history teachers // History Education Research Journal. – 2024. – Vol. 21, No. 1, Article 6. – DOI: 10.14324/HERJ.21.1.06.

23 Endacott J. L., Brooks S. Historical empathy: Perspectives and responding to the past // The Wiley internation-al handbook of history teaching and learning / Ed. by S. A. Metzger, L. M. Harris. – Hoboken, NJ : Wiley, 2018. – P. 203–225.

24 Lee P., Ashby R. Progression in historical understanding among students ages 7–14 // Knowing, teaching, and learning history: National and international perspectives / Ed. by P. N. Stearns, P. Seixas, S. Wineburg. – New York : New York University Press, 2000. – P. 199–222.



Refleksiya va baholash rubrikasi

Dars yakunida talabalardan 250-400 soʻz hajmida refleksiya yozish talab etiladi (3-ilova). Baholash rubrikasi toʻrtta asosiy oʻlchovdan (kontekstualizatsiya, tarixiy nuqtai nazarni tushunish, multikauzal mantiq, axloqiy hukmning aniqlik darajasi) iborat boʻlib, har biri alohida kognitiv va tahliliy koʻnikmalarni aks ettiradi. Har bir oʻlchov boʻyicha mezonlar 4-ilovada keltirilgan.

SI ning roli va texnik tafsilotlari

Ushbu dars modelida sunʼiy intellekt bir nechta asosiy funksional vazifalarni bajardi: (1) har bir tarixiy dilemma uchun ssenariy va variantlarni generatsiya qilish; (2) talabaning tanloviga asoslanib qaror-oqibat zanjirini matn shaklida ishlab chiqish; (3) “davlatning qulashi” holati uchun muqobil tarixiy ssenariylar yaratish; (4) davrga oid xaritalar va meʼmoriy muhitni vizual tarzda rekonstruksiya qilish. Promptlar tuzilmasi va simulyatsion oʻyin html fayli 5 – 6-ilovalarda keltirilgan.

NATIJALAR

Empirik tadqiqot natijalari

Tadqiqot aralash metodli yondashuv asosida, dizayn-asoslangan tadqiqot (Design-Based Research, DBR) elementlarini integratsiya qilgan holda amalga oshirildi. Ishtirokchilar sifatida Toshkentdagi ikki oliy taʼlim muassasasidan jami 60 nafar bakalavriat talabasi tanlab olindi. Ular toʻrtta guruhga ajratildi (har bir universitetdan ikkita guruh, har bir guruhda 15 nafardan talaba). Ishtirokchilarning aksariyati tarix va гуманитар fanlar yoʻnalishlarida tahsil oladi.


Maʼlumotlar toʻplash jarayoni toʻrtta asosiy manbaga tayandi: (1) darsdan oldingi diagnostik test (4 ta ochiq savol); (2) darsdan keyingi test (oldingi 4 savol va qaror asosidagi fikrlashni tekshiruvchi 2 ta qoʻshimcha savol); (3) talabalarning yozma refleksiyalari; (4) oʻqituvchi-tadqiqotchilar tomonidan yuritilgan kuzatuv jurnallari.

Ayrim refleksiyalarda kategoriyalar kesishib ketgan holatlar kuzatildi, xususan talabaning bir vaqtning oʻzida ham kontekstual izoh, ham axloqiy bahoni qoʻllashi shuningdek, ayrim hollarda “axloqiy hukm” va “tarixiy tushuntirish” chegarasi turlicha talqin qilgan.

Quyidagi natijalar pilot tadqiqotdan olingan kuzatuv natijalari boʻlib, 60 ta talabaning javob namunasiga asoslangan, statistik umumlashtirish uchun yetarli emas.

Birinchi holat. Darsdan oldingi refleksiyalarda Sin Shi Xuandi haqidagi javoblarning 78% (47/60) birlamchi axloqiy yorliq bilan boshlangan (“zolim”, “qonxoʻr”, “yomon hukmdor”). Darsdan keyin bu ulush 30% (18/60) gacha kamaydi. Shu bilan birga, kontekstual tahlilga oid atamalarining (Kurashayotgan podshohliklar davri, legalizm, byurokratik markazlashuv, harbiy safarbarlik) qoʻllanilishi ortib, oʻrtacha koʻrsatkich 0.4 dan 2.1 gacha koʻtarildi. Oʻzgarish Cohen’s $d \approx 1.2$ ga teng.

Ikkinchi holat. Simulyatsiya bosqichida talabalar qaror qabul qilish jarayonida sezilarli qiyinchilik va ikkilanishni ifoda etdilar. Bu holat salbiy indikator sifatida emas,



balki “produktik qiyinchilik” sifatida talqin qilinadi, ya’ni talabalar qaror maydonidagi resurs cheklovlari va oqibatlar murakkabligini real tarzda his qila boshlaganining belgisi sifatida kuzatildi. Bu holat ko‘pincha “har qanday tanlovning ham salbiy tomoni bor” degan mazmunda qayd etilgan.

Uchinchi holat. 60 ta refleksiya dan 34 tasida (57%) “tushunaman, ammo oqlamayman” yoki unga o‘xshash javoblar qayd etildi. Ushbu formula dars davomida to‘g‘ri-dan-to‘g‘ri o‘rgatilmagan edi, biroq, Sokratik munozara jarayonida talabalar o‘zaro javoblarni eshitishi natijasida, formulani o‘zlashtirgan bo‘lishlari mumkin.

To‘rtinchi holat. Talabalarda prezentizmning butunlay yo‘qolishi kuzatilmadi. Talabalarning 22% (13/60) refleksiyalarda aniq axloqiy hukmni saqlab qoldi yoki tushuntirishdan oqlashga o‘tish holatiga tushdi, ya’ni kontekstual izohlar orqali tarixiy zo‘ravonlikni qisman oqlashga moyillik ko‘rsatdi (“u o‘z davrida shunday qilishga majbur edi”). Bu pedagogik xavf signali bo‘lib, u kontekstualizatsiya jarayoni ayrim hollarda tarixiy tushuntirishdan chetga chiqib, zo‘ravonlikni yoki qat’iy qarorlarni qisman oqlashga aylanishi mumkinligi haqidagi xavfni [12] amaliy ma’lumotlar orqali tasdiqlaydi.

Beshinchi holat. Talabalar javoblarida sezilarli individual farqlar kuzatildi. Ayrimlar tarixiy sharoitni yaxshiroq tushuna boshlagan bo‘lsalar-da, ammo ayrim hollarda axloqiy bahodan chetga chiqib ketishdi. Yana bir guruh esa aksincha, axloqiy pozitsiyasini barqaror saqlab qolib tarixiy tahlilni yetarli darajada rivojlantira olmadi. Umuuman olganda, faqat 12 nafar talaba (20%) barcha asosiy yo‘nalishlarda yuqori natijaga erishdi. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, darsning ta’siri hamma talabada bir xil bo‘lmagan. Har bir talabaning natijasi uning avvalgi bilimlari, fikrlash uslubi va tarixiy masalalarni qabul qilish tarziga ham bog‘liq bo‘lgan.


MUHOKAMA

Pedagogik xulosalar va tatbiq imkoniyatlari

Ushbu yondashuv boshqa ta’lim kontekstlariga moslashtirilishi mumkin, ammo uni bevosita ko‘chirish tavsiya etilmaydi. Modelning samaradorligi uning tarixiy kontekstga moslashuvi va pedagogik dizayniga bog‘liq bo‘lgani uchun, har bir yangi muhitda qayta ishlab chiqishni talab etiladi.

Ko‘chirilishi mumkin bo‘lgan asosiy komponentlar quyidagilardan iborat: ikki bosqichli tuzilma (vaziyatli simulyatsiya va Sokratik munozara), resurs tokenlari hamda indikatorlar tizimi (ikki tilli terminologiya asosida), birlamchi manbalar bilan ishlash qatlami, baholash rubrikasi hamda “davlat qulashi” mexanizmini tarixiy muqobil ssenariy sifatida modellashtirish.

Shu bilan birga, moslashtirishni talab qiladigan elementlar ham mavjud: tanlanadigan tarixiy shaxs yoki davr, nazariy-falsafiy metaforalar va ramkalar, simulyatsiya uchun ishlab chiqiladigan dilemmalar mazmuni hamda Sokratik munozara savollarining tarkibi. Ushbu elementlar tarixiy va madaniy kontekstga mos ravishda qayta shakllantirilishi lozim.



O'zbek tarixshunosligida tatbiq imkoniyatlari

Ushbu pedagogik yondashuv O'zbekiston tarix ta'limining ayrim muhim mavzularida samarali qo'llanishi mumkin. Xususan, Chingizxon va mo'g'ul istilosi (1219–1221) bilan bog'liq mavzular hissiy jihatdan og'ir hisoblanadi, biroq aynan shu xususiyat ularni kontekstual tarixiy tahlilni rivojlantirish uchun ayniqsa muhim qiladi. Dastlab talabalar Sin Shi Xuandi misolida nisbatan “xavfsiz” simulyatsion muhitda tahliliy ko'nikmalarni shakllantiradilar, so'ngra o'qituvchining ehtiyotkor pedagogik rahbarligi ostida ushbu ko'nikmalarni murakkabroq tarixiy voqealarga tatbiq etadilar. Shu bilan birga, Buxoro va Samarqand fojialarini hech bir sharoitda “o'sha davr uchun normal holat” sifatida talqin qilinishi mumkin emas. Bunday yondashuv kontekstualizatsiyaning noto'g'ri yo'nalishda axloqiy oqlashga aylanishi xavfini bevosita kuchaytiradi ²⁵.

Amir Temur mavzusi esa o'zgacha metodik muvozanatni talab qiladi. Bu yerda emotsional yuk ko'proq milliy faxr bilan bog'liq bo'lib, prezentizmning asosiy ko'rinishi uni zamonaviy milliy davlat asoschisi sifatida anaxronik talqin qilishda namoyon bo'ladi. Shu sababli pedagogik vazifa Amir Temurning XIV asr siyosiy va harbiy mantiqini ulus tizimi, Chingiziy an'analar va harbiy-siyosiy safarbarlik kontekstini tarixiy aniqlik asosida qayta tiklash hamda uni zamonaviy milliy qahramon obrazidan metodik ravishda farqlashdan iborat bo'lishi muhim.

Tadqiqot cheklovlari

Ushbu yondashuvning eng muhim axloqiy xavflaridan biri – talaba tarixiy fojialarni o'quv jarayonida soddalashtirib uni “o'yin” deya qabul qilishi ehtimolidir. Bu xavfni kamaytirish maqsadida har bir qaror bosqichidan so'ng majburiy to'xtash va refleksiya momentlari joriy etildi. Bunda talaba qabul qilgan qarorining natijalari raqamlar yoki indikatorlar sifatida emas, balki real tarixiy hayot va insoniy oqibatlar bilan bog'liq hodisa sifatida qayta anglanadi.


Shuningdek, “davlat qulashi” mexanikasi g'alaba yoki mag'lubiyat logikasi bilan emas, balki tarixiy rivojlanishning muqobil yo'llari sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv tarixni baholashdan ko'ra uni tushunishga yo'naltirilgan refleksiv pozitsiyani saqlab qolishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, agar talabalarga har qanday zamonaviy axloqiy baho noto'g'ri degan qarash singdirilsa, bu o'tmishdagi adolatsizliklarga nisbatan befarqlikni kuchaytirishi mumkin ²⁶. Shu ma'noda tarixiy hamdardlik tarixiy harakatlarni oqlash emas, balki ularni tushunishga intilishdir. Hozirgi-markazli yondashuvlar muqarrar va pedagogik jihatdan foydali bo'lishi mumkin, biroq ular doim tanqidiy refleksiya bilan birga qo'llanilgandagina ilmiy va etik jihatdan asosli bo'lib qoladi ²⁷.

25 Martell C. C., Stevens K. Y. Teaching history for justice: Centering activism in students' study of the past. – New York : Teachers College Press, 2021. – 192 p.

26 Armitage D. In defence of presentism // History and human flourishing / Ed. by D. M. McMahon. – Oxford : Oxford University Press, 2023a. – P. 44–69.

27 Hellerma J. Claiming presentism: navigating vicious and virtuous forms of present-centered history // Rethinking History. – 2026. – P. 1–20. – DOI:10.1080/13642529.2026.2662068



Yuqorida aytilganidek, bizning kuzatuvimiz 60 nafar talaba ishtirokidagi dastlabki pilot kuzatuv sifatida talqin qilishni talab qiladi.

Ushbu yondashuvning muhim metodologik xususiyatlaridan biri shundaki, prezentizmni cheklashga qaratilgan dars modelining o'zi ham ma'lum darajada zamonaviy tushunchalarga tayanadi. Simulyatsiyada ishlatilgan ayrim ko'rsatkichlar o'z davrining tarixiy atamalari bilan 2 tilli qilib berilgan bo'lsa-da, ularni ifodalashda zamonaviy ilmiy kategoriyalardan foydalaniladi. Masalan, "byudjet" yoki "legitimlik" kabi tushunchalar qadimgi Xitoyga emas, keyingi davr ilmiy an'analariга mansub. Xitoycha cang va tianming atamalaridan foydalanish bu tafovutni ma'lum darajada kamaytirsada, ammo uni to'liq yo'qota olmaydi.

Bu holatni kamchilik deb emas, aksincha, darsning muhim o'quv g'oyalaridan biri sifatida talqin qilish kerak. Simulyatsiyaning maqsadi tarixiy voqelikni mutlaq aniqlik bilan qayta yaratish emas, balki talabalarga tarixni o'rganishda biz har doim zamonaviy tushunchalar va ilmiy vositalar orqali fikr yuritishimizni anglash uchun imkoniyatdir.


XULOSA

Tadqiqotning ilmiy yangiligi prezentizm, tarixiy hamdardlik va sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan ikki bosqichli pedagogik modelni yagona, o'zaro bog'liq tizim sifatida integratsiya qilishda namoyon bo'lib, unda prezentizmning mavjudligi va uning salbiy oqibatlari e'tirof etiladi, shu bilan birga, tarixiy hamdardlik o'tmishdagi shaxs va hodisalarni asossiz oqlash vositasi emas, balki ularning qarorlarini o'z davri sharoitida tushunish usuli sifatida talqin qilinadi. Taklif etilgan ikki bosqichli dars modeli aynan shu ikki yondashuv o'rtasidagi muvozanatni amaliy o'quv jarayonida ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot uchta o'zaro bog'liq ilmiy xulosani ilgari suradi. Birinchidan, prezentizm yakka hodisa emas, balki turli shakllarga ega, ularning ayrimlari tarixiy tafakkur uchun muqarrar va hatto foydali, boshqalari esa pedagogik aralashuv talab qiladi. Ikkinchidan, tarixiy hamdardlik hissiy munosabat emas, balki talabalarda maqsadli ta'lim orqali rivojlantiriladigan bilish va hissiy tajriba bilan bog'liq murakkab ko'nikmadir. Uchinchidan, sun'iy intellekt asosida yaratilgan ikki bosqichli dars modeli (simulyatsiya va Sokratik munozara) empirik natijalarning ozligiga qaramasdan, talabalarga "tushunish" va "oqlash" o'rtasidagi farqni amaliy tajriba orqali anglash imkonini beruvchi vosita bo'la oladi.

Mazkur metodika talabalarni tarixiy voqea va shaxslarni sodda axloqiy hukmlar orqali emas, balki ularning qarorlari qanday tarixiy sharoitlarda, qanday resurslar va muqobil imkoniyatlar doirasida shakllanganini tahlil qilishga undaydi. Natijada, talabalarda tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglash, tanqidiy fikrlash va ko'p omilli tarixiy tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur metodologik asos yaratiladi.

Shu nuqtai nazardan, tarix ta'limining vazifasi talabalarni o'tmishni baholashga yoki undan butunlay voz kechishga undash emas. Uning asosiy maqsadi tarixiy hodisa va shaxslarni qanday mezonlar, qanday tarixiy sharoit va qanday metodologik cheklovlar asosida tahlil qilish lozimligini anglatishdir. Bunda tarixiy tushunish o'tmishni oqlash vositasi sifatida emas, balki ilmiy asoslangan baholashning zarur sharti sifatida




qaraladi. Demak, tarix ta'limining asosiy maqsadi o'tmishni zamonaviy mezonlar bilan hukm qilish emas, balki uni o'z davrining ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekstida tushunish hamda shu asosda asosli tarixiy xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Ma'lumotlarning mavjudligi

Ushbu tadqiqot natijalarini asoslovchi qo'shimcha ilovalar, ma'lumotlar bazasi va tegishli materiallar Zenodo xalqaro repozitoriyasiga joylashtirildi va unga quyidagi raqamli identifikator (DOI) biriktirildi: [10.5281/zenodo.20636859]. Plagiat muammolarining oldini olish maqsadida, ushbu fayllarga kirish vaqtincha cheklangan bo'lib, maqola rasman chop etilganidan so'ng hamma uchun ochiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hunt L. Against presentism: Perspectives on history // American Historical Association. Accessed April. – 2002. – T. 4. – C. 2002.
2. Yorgun I. The trap of present-day: Presentism as an issue and its boundaries in historical methodology // Tarih İncelemeleri Dergisi. – 2024. – Vol. 39, No. 2. – P. 881–898.
3. Lee P., Ashby R. Progression in historical understanding among students ages 7–14 // Knowing, teaching, and learning history: National and international perspectives / Ed. by P. N. Stearns, P. Seixas, S. Wineburg. – New York : New York University Press, 2000. – P. 199–222.
4. Fischer D. H. Historians' fallacies: Toward a logic of historical thought. – New York : Harper & Row, 1970. – 362 p.
5. Walsham A. Introduction: Past and... presentism // Past and Present. – 2017. – T. 234. – №. 1. – P. 213–217.
6. Hellerma J. Claiming presentism: navigating vicious and virtuous forms of present-centered history // Rethinking History. – 2026. – P. 1–20. – DOI:10.1080/13642529.2026.2662068
7. Armitage D. In defence of presentism // History and human flourishing / Ed. by D. M. McMahon. – Oxford : Oxford University Press, 2023a. – P. 44–69.
8. Karn S. Designing historical empathy learning experiences: A pedagogical tool for history teachers // History Education Research Journal. – 2024. – Vol. 21, No. 1, Article 6. – DOI: 10.14324/HERJ.21.1.06.
9. Barton K. C., Levstik L. S. Teaching history for the common good. –



Mahwah, NJ : Lawrence Erlbaum Associates, 2004. – 384 p.

10. Endacott J. L., Brooks S. Historical empathy: Perspectives and responding to the past // *The Wiley international handbook of history teaching and learning* / Ed. by S. A. Metzger, L. M. Harris. – Hoboken, NJ : Wiley, 2018. – P. 203–225.

11. Miles J., Gibson L. Rethinking presentism in history education // *Theory & Research in Social Education*. – 2022. – Vol. 50, No. 4. – P. 509–529.

12. Martell C. C., Stevens K. Y. Teaching history for justice: Centering activism in students' study of the past. – New York : Teachers College Press, 2021. – 192 p.

13. Nylan M. The five “Confucian” classics. – New Haven : Yale University Press, 2001. – 416 p.


14. Lewis M. E. The early Chinese empires: Qin and Han. – Cambridge, MA : Harvard University Press, 2007. – 336 p.

15. Pines Y. Envisioning eternal empire: Chinese political thought of the Warring States era. – Honolulu : University of Hawaii Press, 2009. – 328 p.

16. Pines Y. The everlasting empire: The political culture of ancient China and its imperial legacy. – Princeton : Princeton University Press, 2012. – 216 p.

17. DiCamillo L., Gradwell J. M. Using simulations to teach middle grades U.S. history in an age of accountability // *RMLE Online*. – 2012. – Vol. 35, No. 7. – P. 1–16. – DOI: 10.1080/19404476.2012.11462090.

18. Sanft C. Communication and cooperation in early imperial China: Publicizing the Qin dynasty. – Albany : SUNY Press, 2014. – 224 p.



MILLIY TURIZM MAHSULOTLARINI SOTISHDA TUROPERATORLARNING O‘RNI.

РОЛЬ ТУРОПЕРАТОРОВ В ПРОДАЖЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТУРИСТИЧЕСКИХ ПРОДУКТОВ.

THE ROLE OF TOUR OPERATORS IN THE SALE OF NATIONAL TOURISM PRODUCTS.

Qutlimurotov Fayzullo Sa’dulayevich

Sarbov universiteti, Iqtisodiyot va servis
kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada turoperatorlarning milliy turizm mahsulotlarini ilgari surish va sotish bo‘yicha faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Bunda ichki va kiruvchi turizm qimmat zanjirini shakllantirish mexanizmlarini tahlil qilinadi, operatorlar duch keladigan asosiy to‘siqlarni aniqlaydi hamda milliy yo‘nalishlarning jahon va mahalliy bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha strategik yechimlarni taklif qiladi.


Kalit so‘zlar: turoperator, milliy turizm, turistik mahsulot, ichki turizm, destinatsiyani reklama qilish, mehmondo‘stlik sanoati.

Аннотация. В статье исследуется специфика деятельности тuroпepaтopов по продвижению и реализации национального турпродукта. Авторы анализируют механизмы формирования цепочки ценности в сфере внутреннего и въездного туризма, выявляют ключевые барьеры, с которыми сталкиваются операторы, и предлагают стратегические решения для повышения конкурентоспособности национальных направлений на мировом и локальном рынках.

Ключевые слова: тuroпepaтop, национальный туризм, турпродукт, внутренний туризм, продвижение направлений, индустрия гостеприимства.

